


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI**

Siddikov Ilxomjon Xakimovich
Abdumalikov Akmaljon Abduxoliq o'g'li

**INFOKOMMUNIKATSIYA OBYEKTALARINING
ENERGIYA TA'MINOTINI MASOFADAN
MONITORING ALGORITMLARI VA
APPARAT-DASTURIY MAJMUALARINI**

Monografiya



Toshkent–2023

UDK 004.383.3(575.1)

KBK 32.811

S12

Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta'minotini masofadan monitoring algoritmlari va apparat-dasturiy majmualari. Monografiya. I.X. Siddikov, A.A. Abdumalikov. – T.: “Lesson Press” nashriyoti, 2023-y. – 120 b.

Mualliflar
I.X. Siddikov
A.A. Abdumalikov

Taqrizchilar:
X.H.Zaynidinov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU “Sun’iy intellekt” kafedrasи mudiri, t.f.d. professor;

A.Baboyev

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali “Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlар bo‘yicha direktor o‘rnibosari” t.f.n dotesent.

Ushbu monografiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Jizzax filialining 2023-yil 24-apreldagi 9-sonli ilmiy kengashida chop etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9910-9745-8-8

© I.X. Siddikov, A.A. Abdumalikov, 2023
© “Lesson Press” nashriyoti, 2023

KIRISH

Jahonda energiya ta'minoti manbalari monitoringida axborotlarni qabul qilish va taqsimlashda turli signal o'zgartirish jarayonlarini amalga oshiruvchi, qat'iy belgilangan monitoring holati kattalik va parametrlarining qiymatlarini meyorlash hamda ularda qo'llaniluvchi algoritm hamda apparat va dasturiy vositalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, monitoring qurilmalarida kechuvchi jarayonlarning keng funksionalligi, tezkorligi, ishonchliligi va aniqliligin ta'minlovchi ishlash tamoyilli algoritmlar hamda amaliy dasturiy vositalarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda texnika va texnologiyasi yetarli rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Koreya va Rossiyada xam energiya ko'rsatkichlarini monitoringi qurilmalari, ularning ishlash algoritmlari va dasturiy majmularini yaratish hamda amaliyotga qo'llash masalalari muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Jahonda energiya ta'minoti manbalari monitoringida axborotlarni taqsimlashning turli signal o'zgartgichlarini keng qo'llash, ular yordamida doimiy monitoring jarayonlarini amalga oshirishda infokommunikatsiya vositalarini uzluksiz va sifatli ishlashini ta'minlash bo'yicha signallar bilan ta'minlovchi apparatlar, qurilmalar, vositalar hamda algoritm va dasturiy vositalarini takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta'minoti tizimini ishonchli ish holatlarini ta'minlashda ishlab chiqarilayotgan energiya miqdori va sifatini manbalar quvvatini monitoring qilish asosida rejalashtirish, dasturiy vositalar va texnik yechimlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga elektr energiya manbalarining kattalik va parametrlarini ikkilamchi signallarga o'zgartirish apparatlari tuzilish tamoyillari hamda ularning dasturiy vositalarini yaratish dolzarb masalalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda raqamli iqtisod va axborot kommunikatsiya sohasini takomillashtirish asosida infokommunikatsiya obyektlarining elektr energiya ta'minoti ko'rsatkichlarini monitoring tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Yashil iqtisodiyot texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20%ga oshirish va havoga chiqariladigan

zararli gazlar hajmini 20%ga qisqartirish choralarini ko‘rish» vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni bajarishda shu jumladan energiya manebalarini monitoring jarayonlarini modellashtirish, algoritmlash va ularni amaliy faoliyatga qo‘llash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-aprel kuni Toshkent shahri tumanlariga tashrifi davomida “Toshkent shahrida barpo etilayotgan zamonaviy korxonalar faoliyati hamda Yashnobod tumani mahallalarida olib borilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish hamda bu boradagi ishlarni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-aprelda qabul qilingan 22-son bayonnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2021-yil 3-maydagi 02-PA 1-7280-son topshirig‘i ijrosi yuzasidan hamda 2019-yil 22-avgustdagi ”Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soxaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4422-son qarorlari ijrosini ta’minlash va mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. INFOKOMMUNIKATSIYA OBYEKTTLARINI ENERGIYA TA'MINOTINING MONITORINGI APPARAT- DASTURLARINI TAXLILI

Respublika viloyatlarining ma'lum hududlarida uzluksiz elektr energiya bilan taminlashda bir qancha ko'p kanalli signal o'zgartkichlarni qo'llash, infokommunikatsiya obyektlari energiya manbalarini uzluksiz masofadan turib nazorat qilish, boshqarish uchun mo'ljallangan apparat va dasturiy majmular ishlab chiqish va amaliyatga keng qo'llash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu muammolar bilan birgalikga Respublikamizda aloqa vositalari va ular asosidagi internet tarmoqlaridan foydalanish xozirgi davrda xar bir insonning asosiy tayanadigan vositalariga aylangan. Infokommunikatsiya obyektlari abonentlarini sifatli internet bilan taminlashda signal uzatuvchi aloqa qurilmalari asosiy vazifani bajaradi. Ushbu jixatlardan kelib chiqib infokommunikatsiya obyektlarini uzluksiz elektr energiya bilan taminlash ushbu soxada ko'plab muammoli xolatlarni bartaraf etishga katta turtki bo'ladi.

1.1-§ Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta'minotini monitoringini dolzarbligi

Infokommunikatsiya obektlarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda ularga hizmat qo'rsatishning sifati yetarli darajada ta'minlanmaganligi, energiya ta'minotidagi uzilishlar kabi noqulayliklar va qator muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar birinchi navbatda tegishli infokommunikatsiya uzluksiz energiya iste'moli obyektlarida ishonchli va tejamkor energiya ta'minotining amalga oshirilmaganligi bilan bog'liq. Ushbu tadqiqot ishi infokommunikatsiya obektlarining barqaror rivojlanishi uchun ishonchli va tejamkor energiya yechimini ta'minlash maqsadida markazlashgan energiya ta'moti bilan bir qatorda qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida energiya bilan taminlash va bunda raqamlı texnologiyalarni keng qo'llashning asosiy tamoyillarini ko'rib chiqishni yechimlarini taqdim etadi [2; 232-b].

Infokommunikatsiya obyektlari- bu ma'lumotlarni qayta ishslash, to'plash, saqlash va uni uzoq masofalarga uzatish vositalarining majmui bo'lib, ular orqali axborot resurslarining mavjudligi va axborot almashinuvi ta'minlanadigan yagona tarmoq tuzilmasida amalga oshiriladi. Infokommunikatsiya obyektlari tarmog'i - bu tarmoqning

oxirgi tizimlarida va foydalanuvchi terminal tizimlarida joylashgan, o‘zaro aloqasi telekommunikatsiya vositalari orqali ta’minlanadigan va birgalikda yagona multiservis platformasini tashkil yetuvchi geografik jihatdan tarqalgan ma’lumotlar, hisoblash resurslari, dasturiy ta’minotni boshqarish tizimlari to‘plami. Infokommunikatsiya obyektlari ma’lumotlarni qayta ishlash, to‘plash, saqlash, ko‘rsatish va yaxlitligini ta’minlash usullari va usullari, shuningdek, ma’lum bir kafolatlangan xizmat sifatini ta’minlaydigan kosmosda uzatish rejimlarini amalga oshirish usullarini o‘z ichiga oladi. [53; 1-6-b, 98; 163-165-b].

Infokommunikatsiya obyektlari xozirgi kunda xar bir soxaning tayanch qismlaridan biriga aylangan. Telekommunikatsiya signal utazish stansiyalari xamda malumotlar markazi (Data centr) infokommunikatsiya obyektlarini tashkiliy bo‘limlari sanaladi. Energiya ta’minoti stansiyalari ma’lumotlar markazlarining muhim tarkibiy qismidir. Elektr energiyani talab qiladigan boshqa har qanday obyekt singari, ma’lumotlar markazlarining xam deyarli xar bir ishslash jarayonlari uzlusiz energiya quvvati manbaiga tayanadi. Quvvat yetarli bo‘limgan ma’lumot markazida axborotlarni olish va qayta ishslash yetarli bo‘lmaydi. Ma’lumotlar markazida har doim hamma narsa muammosiz ishslashini ta’minlash uchun obyektlar menejerlari muhim uskunalarining doimiy ravishda uzlusiz elektr energiya bilan ta’minlashda faol bo‘lishi talab qilinadi. Aksariyat ma’lumotlar markazlari asosiy elektr yenergiyani markaziy elektr tarmog‘idan oladi. Infokommunikatsiya obyekti elektr energiyani olish uchun bir yoki bir nechta transformatorga yega bo‘ladi, shu bilan birga keladigan quvvat to‘g‘ri kuchlanish va to‘g‘ri turdagи oqim (odatda o‘zgaruvchan tokdan doimiy oqimga aylantiriladi) bo‘lishini ta’minlaydi. Uzlusiz ish vaqtini ta’minlash va imkon qadar uzilishlarni kamaytirish uchun ko‘pchilik ma’lumotlar markazlari binolarida yoki yaqin joyda zaxira quvvat manbai mavjud. Zaxira quvvat manbai yoqilg‘i generatoridan keladi, yani benzin yoki dizel yoqilg‘isi bilan ishlaydi. Ma’lumotlar markazi muhitida energiya iste’moli shunchalik yuqori darajada o‘sib borayotganining bir nechta sabablari bor. Nafaqat serverlar balki mavjud IT-uskunalarining boshqa muhim qismlari ishlashi uchun ko‘p energiya talab etiladi. Chiroqlar,sovutish tizimlari, monitorlar, namlagichlar va boshqa mavjud jixozlar xam elektr energiyaga muhtoj apparat vositalar jumlasiga kiradi. Ma’lumotlar markazidagi elektr energiyasi serverlarga qancha sarflanishini aniqlash uchun qurilmalar energiya sarfi va foydalanish samaradorligini quvvatdan foydalanish

samaradorligi (QFS) balli orqali o'lchanadi. 1 ball ma'lumotlar markazidagi har bir yutuq energiya serverlarga ketadi va boshqa hech narsa emasligini, 2 ball yesa yordamchi uskunalar serverlar va boshqa IT komponentlari kabi ko'proq elektr energiyasidan foydalanishini bildiradi. Rossiyaning Uptime instituti olimlarining so'ngi o'rganishlariga ko'ra, ma'lumotlar markazining o'rtacha QFS qiymati 1,58 ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich 2017-yil (2,5 bo'lgan) va 2019-yil (1,65 bo'lganida) yildan buyon barqaror pasayib bormoqda. Google ma'lumotlar markazi uchun o'rtacha QFS 1,12 ni tashkil qiladi, ammo uning Oklaxomadagi obyekti 2018 yilning so'nggi uch oyida atigi 1,08 ballga yega yedi [101;106; 154-155-b].

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida shuni aytish mumkinki, infokommunikatsiya obyektlarini uzluksiz elektr energiya bilan taminlashda qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llash xamda zaxira energiyani uzluksiz monitoringini taminlash apparat va dasturiy vositalarini amaliyotga keng joriy etish zarur xisoblanadi.

Ma'lumki energiya ta'minoti obyektlarining ishonchli ishlashi uchun turli kuchlanishdagi elektr energiyasi talab qilinadi. Bu kuchlanishlarning har qanday o'zgarishi istemolchilarga ma'lum miqdorda ta'sir qiladi, natijada nazorat va boshqaruvtizimiga raddiya beradi va aloqa uziladi. Ishonchlilikni oshirish uchun signal qurilmalarini elektr ta'minotida zaxira elektr energiyasi manbalarini boshqarishni joriy etish yoki mavjudlarini takomillashtirish uchun zamonaviy ilg'or usullarni tadbiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda zahira elektr manbasini ta'minlash qurilmasi bo'lib dizel generatorlar yoki akkumulatorlar hisoblanadi, ular qo'shimcha afzalliklarga egaligi sababli etiborga loyiq hisoblanadi [2;103-b].

Uzluksiz elektr energiya istemol qiluvchi infokommunikatsiya obektlarini elektr energiya bilan ta'minlash uchun markazlashgan elektr energiya ta'minoti bilan bir qatorda avtonom, qayta tiklanuvchan elektr energiya manbalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Hozirda bu uskunalarning bir qancha turlari ishlab chiqilgan. Ularga, shamol kuchidan foydalanish (shamol generatorlari), gibrild shamol-quyosh manbalari va faqat quyosh energiyasidan foydalanadigan manbalarni keltirish mumkin. Keltirilgan manbalardan eng ma'quli, quyosh energiyasi manbalari hisoblanadi va ularni turli variantlarda (kuchlanishlarda) tashkil etish mumkin [93; 159-160-b, 94; 36-37-b, 95; 88-89-b, 96].

Quyosh energiyasi manbalarini klassik elektr energiyasi manbalari bilan taqqoslaganda, aylanadigan elementlarning yo‘qligi sababli yanada ishonchliroq hisoblanadi. Bunda asosiy e’tiborni qurilma asosiy elektr energiyasi tuhtatilgach qancha vaqt batariyadan quvvatlanishiga qaratilishi kerak, batariyaning qanchalik quvvati yuqori bo‘lsa shunchalik qimmat bo‘lishiga axamiyat berish kerak [92; 22-23-b, 98].

Bu kamchiliklardan asosiysi sifatida qayta tiklanuvchan energiya manbalarning aksariyatini reaktiv quvvat ishlab chiqarmasligi xisoblanadi, uni bartaraf etish qurilmalardan kelgan signallar asosida barcha elektr uskunalarning ish sharoitlarini yaxshilash va energiya ta’minoti tizimidagi sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash talab etiladi [12; 61-64-b, 13; 496-b].

Uzluksiz elektr energiya istemol qiluvchi obektlarni qayta tiklanuvchan energiya manbali elektr ta’minoti tizimida reaktiv quvvatni kompensatsiyalash katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular quvvat va energiyaning foydali ish koeffitsientini oshirish, tizimning iqtisodiy va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashda asosiy omillardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda reaktiv quvvat iste’molining o’sishi aktiv quvvat iste’molining o’sishidan ancha yuqori bo‘lib, masalan infokommunikatsiya obektlarida reaktiv yuklama aktiv yuklamaga nisbatan 60-70%ni tashkil etadi [8; 9; 11; 13].

Gibrildi energiya ta’minot manbalarini taxlili. Quyosh energiya ta’minoti manbasi quyoshdan kelayotgan yorug‘lik va issiqlik energiyasini elektr energiyasiga o‘zgartiradi. Quyosh energiya ta’minot manbali tomonidan ishlab chiqilgan energiya elektr ta’minoti qurilmalarini energiya bilan ta’minlash bilan bir qatorda akkumulator batareyalarini ham zaryadlaydi. Monitoring va boshqaruv qurilmasi yordamida akkumulatorning zaryad va razryad jarayonlari nazorat qilib turiladi [65; 1-4-b, 78; 192-194-b, 91; 97]. Quyosh energiyasi qurilmalarida On-grid, Off-grid va Gybrid holatlarda ishlovchi energiya ta’minoti manbalarida keng qo‘llanib kelinmoqda [89; 186-198-b].

Yilning yanvar, fevral, mart, aprel hamda oktabr, noyabr va dekabr oylarida qolgan oylarga nisbatan shamol energiya ta’minoti manbalaridan foydalanish samarali hisoblanib, qolgan oylarida uzluksiz energiya bilan ta’minlashda boshqa oylarga nisbatan 2-3 marta ko‘proq shamol energiya ta’minoti manbalarini ishlatish mumkin [93; 159-160-b, 98; 163-165-b, 103].

Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyani o‘zgarishi, markazlashgan energiya tarmoqda ulangan va ulanmagan hollarda alternativ energiya

manbalaridan qo'llash, energetik qurilmalarni tavsiflarini yaxshilash, f.i.k.larini oshirish, ish holatlarini doimiy ravishda monitoringi qilish, chiqish kattalik va parametrlari qiymatlari o'zgarganda zamonaviy dasturiy va apparat majmualar asosida avtomatik ravishda rostlash orqali energiya samaradorligini oshirish imkonи mavjud. Qayta tiklanuchan energiya manbalari asosidagi energiya ta'minoti tizimi kattalik va parametrlarini tadqiq qilish dasturiy ta'minoti va apparatlarning tajribaviy namunasini yaratishni talab etiladi [21].

Tadqiqotlar dasturiy ta'minoti va modelini ishlab chiqishdan ko'zlangan maqsad, qayta tiklanuvchan energiya manbalarini markazlashgan energiya ta'minoti bilan integratsiyasini takomillashtirish, energetik qurilmalarning samaradorligini oshirish, energetik kattalik va parametrlar, ishlab chiqarilayotgan energiya miqdori va holati, qurilmalarning f.i.k.ni muntazam ravishda masofali internet texnologiyalari yordamida nazorat qilish, boshqarish tizimini yangi dasturiy vositalar, texnika va texnologiyalar asosida takomillashtirish xamda monitoringi tizimini yaratishdan iboratdir [7;40].

Elektr ta'minoti parametrlarini, manbalardan qurilmalardan olingan signallar asosida aniqlash jarayonini asosini tashkil etadi [54].

Hozirgi vaqtida energiya ta'minotini nazorati va boshqaruvi jarayonlarini amalga oshirishda turli xil zamonaviy usullar va innovatsion texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Monitoring va boshqaruv qurilmalarida, kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari, axborotlarni taqsimlashda yangi turdagи signal o'zgartirish jarayonlari va texnologiyalari keng joriy etilayotgan bo'lib, bunda monitoring va boshkaruv signalini xosil qilish va o'zgartirishda turli o'zgartirish elementlarini zamonaviy IOT texnologiyalar asosida ishlaydigan turli xil dasturiy vositalar orqali amalga oshirilishiga katta axamiyat berilmokda [45;88].


Monitoring tizimlarini, o'lchov asboblari va qurilmalarini signal bilan ta'minlash bo'yicha tarkibiy qism hisoblangan elementlar va axborotlarni taqsimlash tizimini elektr energiya bilan taminlashni uzlusizligini, ishonchlilikini, kam materiallar sarfini va boshqa qator texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilaydi.

Amaliyotda monitoring sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashning asosiy muammolaridan bo'lgan uzlusizlik, ishonchlilik, tezkorlik, signal o'zgartirishning aniqligi va zamonaviy algoritm xamda interaktiv dasturiy majmualarni yaratish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

1.2-§. Monitoring apparat-dasturiy vositalari

Energiya ta'minoti monitoringi qurilmalari jarayonlarini mikroprotsessor va elektron vositalarini ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi signal bilan ta'minlovchi o'zgartkichlarning ish holati ehtimolligi tavsiflari ikkilamchi signalni hosil qilish apraratlarining ishlash va ishdan chiqish holatlarini amaliy dasturiy vositalar yordamidagi tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi. Monitoring qurilmasining ish holati ehtimolliklarini tadqiqida I- birlamchi toklarni asosiy kattalik bo'lgan U_e - chiqish kuchlanishlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi elementlarning ishlashi ehtimoli bo'lgan holatlarining ko'rsatkichlarini hisoblash talab etiladi [42; 125-130-b, 47; 22-b].

Energiya ta'minoti manbasi monitoringi signal o'zgartirish va manbalar to'g'risidagi axborotlarni real vaqt rejimida uzoq masofalarga uzatish qurilmalarini joriy etish sxemasi 1.1-rasmda ko'rsatilgan.



1.1- rasm. Infokommunikatsiya ob'etlari energiya ta'minotini masofadan monitoring qilish apparat-dasturiy vositalari sxemasi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, energiya ta'minoti monitoringi tizimlarida turli xil signallarni o'zgartirish va ularni taqsimlash qator muammolarini yechish bilan boglik. Ushbu muammolarni yechishda xozirgi paytdagi qo'llanilib kelinayotgan energiya ta'minoti monitoringi uchun mo'ljallangan qurilmalar va apparat-dasturiy majmualar juda axamiyatli xisoblanadi [6; 298-302-b, 7; 274-277-b, 41; 106-110-b].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda energiya ta'minoti monitoringi qurilmalarida quyidagi xolatlarni e'tiborga olish kerak :


- monitoring qilish qurilmalar yetarli darajada dasturiy vositalar bilan taminlanmagan;
- aniq natijalar asosida ishlaydigan qurilma va vositalarning yetishmasligi;
- qurilmadan real vaqt tizimida malumotlarni monitoring qilish va boshqarish imkoniyatini pastligi;
- hizmat ko'rsatish xarajatlari kam (qurilma va qurilmalarga texnik hizmat ko'rsatish, panellarni tozalash va boshqalar).

Qurilmalar asosida signal o'zgartirishning o'ziga xos kamchiliklari mavjud:

- monitoring va rostlash imkoniyati cheklangan;
- signallarni taqsimlashda muammolar mavjud;
- signal o'zgartiruvchi qurilmalarni individual o'rnatishda monitoringi qurilmalarning o'zini qoplash muddati juda kam miqdordaligi.

Energiya ta'minoti manbalari monitoringi jarayonlarini masofadan monitoring qilish xolatlarini amalga oshiruvchi vositalar, ulardagi kattalik va parametrlarni uzluksiz monitoringini taminlovchi signal uzatish vositalari, qurilmalarning o'zaro tasiri va signal uzatish vazifalarini amalga oshirish vaqtida aniqroq baxolash mumkin.

Monitoring uchun mo'ljallangan o'rnatilgan tizimlar mobil ilovalar va amaliy dasturiy vositalar yordamida energiya ta'minoti manbalarini masofadan monitoring qilish, boshqarish uchun qarorlar qabul qilish imkoniyatini taqdim etmoqda. O'rnatilgan tizim (O'T) - bu shunday apparat-dasturiy vositalar xisoblanadiki, u dasturlanadigan kompyuterni o'z ichiga oladi, ammo kompyuter qurilmasi bo'lishi umumiy maqsad qilinmaydi. O'z nomi bilan aytadigan bo'lsak o'rnatilgan tizim – ma'lum vazifa yoki vazifalarni bajarish, boshqarish, monitoring qilish uchun mikrokontroller yoki mikroprotsessorga o'rnatilgan maxsus kompyuter tizimi xisoblanadi. O'Tga mustaqil tizim yoki katta tizimning bir bo'lagi sifatida qarash mumkin. 1.2.-rasmda O'T umumiy ierarxik modeli ko'rsatib o'tilgan [4;127-128-b].



1.2-rasm. O‘rnatilgan tizimlar ierarxik modeli.

O‘rnatilgan tizimalarni loyxalashda dastlab kuchlanish ko‘rinishidagi signallarni olishda elektr qurimalari, yani to‘k o‘zgartkichlar xisoblanib, ularning mazkur tadqiqot ishiga oid qismlari taxlil qilingan.


Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minoti manbalari monitoringi qurilmalari jarayonlarini mikroprotsessor va elektron vositalarini ikkilamchi kuchlanish ko‘rinishidagi signal bilan ta’minlovchi qurilmalarning ish holati ehtimolligi tavsiflari ikkilamchi signalni hosil qilish elementlarining ishlash va ishdan chiqish holatlarini tadqiqlari asosida amalga oshiriladi. Monitoring qurilmasining ish holati ehtimolliklarini tadqiqida I- birlamchi toklarni asosiy kattalik bo‘lgan U_e - chiqish kuchlanishlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi elementlarning ishlashi ehtimoli bo‘lgan holatlarining ko‘rsatkichlarini hisoblash talab etiladi [48;49; 20-b].

Energiya ta’minoti manbalari xolatini monitoring jarayonida birlamchi kattaliklarni ikkilamchi signalga o‘zgartkichlar, ularning asosiy kattalik va parametrlari quyidagicha taqdim etiladi [29]:

a) Bir fazali ikki elementli signal o‘zgartirish apparati modeli

Elektr ta’minoti tarmog‘idan oqayotgan I_A – birlamchi tokni ikkilamchi kuchlanish kurinishidagi signalga o‘zgartirish jarayonini ta’minlovchi

ikki elementli signal o‘zgartirish qurilmasi modeli 1.3-rasmida keltirilgan [72].



1.3-rasm. Birlamchi tokni ikkilamchi kuchlanishga o'zgartirish, ikki elementli signal o'zgartirish qurilmasi tuzilishi.

Ushbu qurilma ikki elementdan iborat:

1-Birlamchi tok o'tkazgich, 2- Ikkilamchi sezgir element.


Ue chiqish kuchlanishi ikkilamchi cho'lg'amlar va birlamchi tokga proparsional bo'ladi.

b) Bir fazali uch elementli signal o'zgartirish qurilmasi - Rogovskiy belbog'i ko'rinishida signal o'zgartirish apparati modeli

Elektr ta'minoti tarmoqdan oqayotgan I_A – birlamchi tokni ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi signalga o'zgartirish jarayonini ta'minlovchi uch elementli signal o'zgartirish kurilmasi - Rogovskiy belbog'i - poyasining o'zgartirish ko'rinishida signal o'zgartirish apparati modeli elementlari

1.4 - rasmda keltirilgan [68; 113-124-b, 69; 74-78-b, 70; 125-129-b].

Uch elementli tok o'zgartirish qurilmasining sodda tuzulishida birlamchi tokni ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi signalga o'zgartirish jarayoni tok o'tkazgichi – qurilmaning qo'zg'atish manbasi – birlamchi chulg'ami asosida amalga oshirilib, qurilmaning sezish elementi sifatida birlamchi chulg'am hosil qiluvchi magnit maydonida joylashgan ikkilamchi chulg'am (Rogovskiy belbog'i – poyasi) ishlatalidi.




1.4-rasm Uch elementli signal o'zgartirish apparati modeli - Rogovskiy belbog'i - poyasining o'zgartirish elementlari: 1 – magnit o'zak, 2 - ikkilamchi chulg'amli, 3–birlamchi tok o'tkazgich - birlamchi chulg'am.

Ikkilamchi chulg‘am chiqish kuchlanishi birlamchi tokga proporsional bo‘lishi ta’minlanadi [72].

v) Bir fazali uch elementli signal o‘zgartirkich

Uch elementli signal o‘zgartirish kurilmasida uchta o‘zgartirish elementlari mavjud va ularning signal o‘zgartirish apparati ko‘rinishidagi modeli 1.5-rasmda keltirilgan.:



1.5-rasm. Uch elementli signal o‘zgartirish apparati modeli.

Uch elementli ko‘rinishida signal o‘zgartirish apparati modeli - signal o‘zgartirish qurilmasida uchta elementlar mavjud.

U_{E1} -kirish kuchlanishi,

F_μ -magnit oqim,

I_{E2} -chiqish toki,

$E_2 = U_{E2}$ -chiqish kuchlanishi,


Z_E -ikkilamchi tokning to‘la qarshiligi,

w_2 - ikkilamchi chulg‘am,

w_1 -birlamchi tok o‘tkazgich-birlamchi chulg‘am.

d) Bir, ikki va uch fazali birlamchi elektr toklarning to‘rt elementli signal o‘zgartirish qurilmasi modeli.


Prof. V. Kovalenkov yaratgan bir fazali signal o‘zgartirish to‘rt elementli magnit boshqariluvchi kontaktning - qurilmaning (gerkon) asosiy elementlari 1.5 – rasmda keltirilgan. Bir fazali to‘rt elementli birlamchi tok qurilmaida 4- tok o‘tkazgich - birlamchi chulg‘amdan tok oqib o‘tganda 1 – qo‘zg‘aluvchi kontakt 2 – qo‘zg‘almas kontaktga ulanadi, tok oqishi to‘xtaganda .1 – kontakt 2 - kontaktdan uziladi [71; 47-48-b].



1.6-rasm. Prof. V. Kovalenkovning magnit boshqariluvchi kontaktning asosiy elementlari: 1-qo‘zg‘almas kontakt, 2-qo‘zgaluvchan kontakt, 3-magnit o‘zak, 4-tok o‘tkazgich - birlamchi chulg‘am.

Uch fazali I_A , I_V va I_S -birlamchi toklarni ikkilamchi kuchlanishga o‘zgartirish to‘rt elementli qurilmaning asosiy signal o‘zgartirish elementlari 1.7 -rasmda keltirilgan [18; 231-b].


Uch fazali birlamchi toklarini monitoringi uchun ikkilamchi kuchlanishga o‘zgartirish to‘rt elementli qurilmada 1, 2, 3 va 4 –sezish elementlari (oddiy yoki yassi o‘lchov chulg‘amlar yoki gerkonlar), 5 - izolyatsion plastinka, 6, 7, 8 va 9 - to‘rt parallel sterjenli magnit o‘zak, 10 –magnit o‘zakning umumiy asoschi, 11- qo‘sishimcha o‘zaklar, 12 (faza A), 13 (faza V) va 14 (faza S) –tarmoq tok o‘tkazgichlari – birlamchi qo‘zg‘atish chulg‘amlaridan iborat [9;17].



1.7-Rasm. ACS712 – tok o‘lchagich qurilmasi.

Ushbu qurilma o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok kuchini o‘lchashga mo‘ljallangan; elektr zanjiriga ketma-ket ulanadi. Shkalasi asbobning o‘lchash chegarasiga muvofiq mikroamperlarda, milliamperlarda, kiloamperlarda darajalariga bo‘linadi. O‘lchash chegarasini oshirish uchun shuntlab yoki transformator orqali ulanadi. Tok ta’sirida asbob


mili buriladi; milning burilish burchagi tok kuchiga mutanosib bo‘ladi. Ishlashiga qarab, ampermetrlar magnitoelektrik, elektromagnit, elektrodinamik, ferrodinamik, to‘g‘rilagichli tizimdagi ampermetrlarga bo‘linadi. Tok kuchini o‘lhash uchun mo‘ljallangan 2 tadan 4 tagacha analog kirishlar bilan bir vaqtida ishlashga mo‘ljallangan. Xamma mikrokontrllerlar bilan integratsiyaga UART rejimida kirisha oladi.



1.8-Rasm. DC-DC tok o‘zgartkich.

Ushbu kontroller o‘zgarmas kuchlanishli tokni kuchaytirish va kamaytirish uchun mo‘ljallangan. Bu platforma 48 v kuchlanishgacha bolgan tok manbai bilan bemalol ishlay oladi. Bundan tashqari kirish tokini kuchaytirish xususiyatiga ham yega. Sxematik jihatdan oldingi barcha konvertorlardan ancha kuchli va murakkab tuzilgan.

Ma’lumki, signal o‘zgartkich qurilmalari o‘z ichiga monitoring va boshkaruv signallari bilan ta’minlaydigan jarayonlar va bo‘laklarni oladi. Monitoring tizimlarining o‘lchov asboblari va qurilmalarining signal bilan ta’minalash bo‘yicha asosiy tarkibiy qismi hisoblangan signal o‘zgartirish qurilmalari signallarni olish, kayta ishlash va taqsimlash tizimini uzluksizligini va ishonchlilagini belgilaydi [72;73;76].



1.9-rasm. O‘rnatilgan tizimlar arxitekturasi

Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta’minoti manbalarini monitoring qilishda tok o‘zgartkichlardan olingan kuchlanish ko‘rinishidagi analog signallarni O‘Tlar yordamida monitoring qilish eng optimal yondoshuvlardan biri hisoblanadi. O‘T xozirgi kunda iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida, xususan, sanoatda, qishloq xo‘jaligida, chorvachilikda, tibbiyotda, harbiy sohada, kompyuter arxitekturasida, kriptografiyada, mashinasozlikda, samalyotsozlikda, shaharsozlikda, maishiy texnikada, avtomatika sohasida, robototexnikada, ta’limda va boshqa ko‘plab raqamli qurilmalarni ishlab chiqishda keng ko‘llanilib kelinmoqda[1;26; 22-b].

Energiya ta’minoti manbalari monitoringi bilan bog‘liq amalgalashishiga qo’shilishda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari xamda ularning natijalaridan xulosa qilish mumkinki, oxirgi yillarda manbalarni masofadan monitoring qilish, boshqarish jarayonida O‘Tlardan keng foydalanimoqda. Shu bilan bir qatorda infokommunikatsiya obyektlarida texnik jarayonlarni monitoring qilish imkoniyatlari takomillashtirilmoqda. Xozirda infokommunikatsiya obyektlarini uzlusiz elektr energiya bilan taminlash dolzarb muammo hisoblanadi. Raqamli qurilmalar yordamida energiya ta’minoti manbalari ma’lumotlarini intellektual tahlil qilish algoritmlari taklif etilganidan keyin, ushbu yo‘nalishga mo‘ljallangan ko‘plab infokommunikatsiya obyektlarida monitoring uchun mo‘ljallangan apparat-dasturiy majmualarni ishlab chiqish masalalari taklif etilmoqda[60; 68; 113-124-b, 82].

1.3-§. IoT arxitekturalarini qo‘llanilishi va dasturlarning o‘zaro aloqasini taminlash jarayonlari

Oxirgi yillarda turli ko‘rinishdagi texnik vositalarning internet tarmog‘iga oddiy ulanish imkonini beruvchi radio to‘lqinli identifikatsiyalash, simsiz sensorlar, yaqin aloqa, inson va kompyuter aloqasi sezilarli darajada rivojlandi. Bu esa ularning global tarmoq vositalariga ulanishlar darajasini oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Dunyo olimlarining taxliliga ko‘ra, 2008-2009 yillar davomida Internet tarmog‘iga ulangan qurilmalar va tizimlar yer yuzidagi insonlar sonidan oshib ketgan va 2016 yilga kelib ularning miqdori 25 milliardni tashkil etgan. 2021 yilga borib esa bu ko‘rsatkich ikki yarim barobarga, ya’ni 63 milliardni tashkil etadi. Shu ko‘rinishda «Internet va insonlar» tushunchasidan «Buyumlar va interneti», ya’ni IoT tushunchasiga o‘tish jarayonlari yuqorilab ketmoqda [56;57].

Bugungi kunga kelib dunyodagi taniqli rivojlangan korxonalar mutaxassislari tomonidan IoT platformasini ishlab chiqarilayotganini ijtimoiy tarmoqlar va turli xil axborot beruvchi vositalar orqali o‘qiganimizda yoki eshitganimizda ko‘p vaqt o‘tmasdan uni amaliy natijalarini ko‘rishga erishmoqdamiz. Buning sababi oddiy – ko‘philik IoT texnologiyasi bugungi kunda jamiyatdagi mavjud bo‘lgan ko‘plab soxalarga kirib bormoqda. Jumladan infokommunikatsiya obektlarining asosiy tayanchi bo‘lgan energiya ta’mnoti qurilmalarini xam masofadan monitoring qilishda IoT texnologiyalarining xozirgi davrdagi o‘rni aloxida ajralib turadi. Energiya ta’mnoti obektlarining internet tarmog‘iga ulanishi o‘z navbatida ularni nazorat qilish va boshqarish jarayonlarini amalga oshirishni taminlab beradi [84;88; 1-5-b].

IoT (*ing. Internet of Things – Buyumlar interneti, IoT*) tushunchasi borasida juda ko‘p ta’riflar mavjud. IoT bu - atrofdagi bizni o‘rab turgan real va virtual obyektlarni birlashtirgan yagona tarmoqdir. Ya’ni, bitta tarmoqda fizik obyektlar (*ashyolar, qurilmalar, uskunalar*) inson ishtirokisiz o‘zaro yoki tashqi muhit bilan qisman va to‘liq muloqat qilish imkonini beruvchi tushuncha sifatida qaraladi.

Bizning yon-atrofimizni qurshab olgan barcha narsalar va qurilmalar miniatyur identifikasiya va sensor (*sezgir element*) qurilmalari bilan jihozlangan. Agar ularning o‘rtalarida o‘zaro yagona aloqa liniyalari mavjud bo‘lsa, ushbu majmualarni nafaqat kuzatish, balki ularni istalgan joyda va vaqtda boshqarish yoki ular bilan inson aloqasisiz muloqat qilishi mumkin.

Ushbu fiklardan kelib chiqqan xolda shunday deyishimiz mumkin, infokommunikatsiya obektlarining energiya ta'minoti manbalarini masofadan monitoring qilish nuqtai nazaridan IoT tushunchasini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

IoT = gibrild energiya +sensorlar + ma'lumotlar + tarmoq + xizmat+ilovalar.

Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, IoT - IP (*Internet Protocol*) protokoli yordamida o'zaro muloqot jarayonini amalga oshiruvchi kompyuterlar, sensor qurilmalari va ijrochi qurilmalarning globallashgan tarmog'idir.

IoT tushunchasidagi barcha vositalar o'zaro bir vaqtda yoki doimiy tarmoq yordamida muloqat jarayonlarini amalga oshirish uchun unikal identifikatorga ega. Bu o'z navbatida obyektlarning geografik joylashuvi haqida ma'lumotlarni olishi, energiya sarfi, mavjud energiya ta'minoti manbalarining xolatini bilish va mantiqiy jarayonlarni amalga oshirish imkoniyatini to'liq avtomatlashtirishga yordam beradi. Bunga ko'ra ular mavjud bo'lgan boshqa qurilmalar bilan o'zaro insonlar ishtiropi yoki ishtiropkisiz muloqot jarayonlarini amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

IoT tushunchasi birinchi bo'lib 1990 yilda TCP/IP protokoli asoschisi Djon Romki tomonidan ilgari surilgan. XXI asrga kelib esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida IoT tushunchasi shakllandi va amalga tadbiq qilindi [114].

Bugungi kunga kelib IoT tushunchasi qulaylik va xavfsizlik nuqtai nazaridan energiya ta'minoti va infokommunikatsiya obyektlarining insoniyat ijtimoiy rivojlanishining yangi modeliga aylanib bormoqdadir. Internet buyumlari, masofadan boshqarish tizimlari, «aqli energiya boshqaruv manbalari» kabi tushunchalarning rivojlanishi tarmoqqa ulanuvchi qurilmalar sonining ortishiga olib kelmoqda [73;74;75].

Bu o'z navbatida IoT texnologiyasining inson faoliyatidagi barcha sohalariga, jumladan infokommunikatsiya obyektlarini energiya ta'minotini masofadan monitoring qilish xizmatlariga xam kirib borishidan darak beradi. Yaqin kelajakda IoT yordamida ta'lim, energiya ta'minoti, tibbiy yordam, logistika xizmatlari, xavfsizlik va boshqaruv sohalarida yuksak natijalarga erishiladi.

Oxirgi yillardagi tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyat uchun xozirgi kunda infokommunikatsiya tizimlarining rivoji iqtisodiy va ijtimoiy jixatdan juda katta foyda keltiradi. Olimlarning aytishicha xizmat ko'rsatish obyektlarini uzluksiz energiya bilan taminlash va energiya ta'minoti tizimlarini masofadan turib boshqarish juda

murakkab jarayondir. Butun dunyoda IoT texnologiyasini rivojlantirish uchun ko‘plab pul mablag‘lari sarflanmoqda va ushbu loyihalarning ba’zilari quyidagilar hisoblanadi Xitoyning Sanoat va IT vazirligining China’s National IoT Plan, Yaponianing u-Strategy loyihasi, Buyuk Britaniyaning kelajakdagi Internetti va Italiyaning Netergit loyihasi. Infokommunikatsiya obyektlarini uzluksiz elektr energiya bilan taminlash tizimlarini nazorat qilish va ularni masofadan turib boshqarishda IoT texnologiyasini qo‘llash, signal uzatish qurilmalari yani telekommunikatsiya inshoatlarini uzluksiz energiya bilan taminlashga katta yordam beradi, qisqa muddat ichida manba ishlab chiqarayotgan energiyaning miqdori, bundan tashqari energiya sarfini tejash va to‘g‘ri taqsimlash imkoniyatlarini yaratib beradi [42;49-20b].

Infokommunikatsiya inshoatlarida mavjud bo‘lgan energiya ta’mnoti tizimlariga biriktirilgan turli xil energiya samaradorlik va elektr energiya ishlab chiqarayotgan manbalarning ish xolati xaqida ma’lumotlarini ishonchli olish uchun ishlatalidi, to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilinadi (unga tegishli bo‘lgan algoritmlarni qo‘llagan holda) va turli xil uzatish vositalaridan(GSM modullar, internetga ulangan Wi-Fi) foydalanim web serverga yuboriladi. Turli xududlarda joylashgan infokommunikatsiya inshoatlari, antennalar va xar xil signal uzatish vositalarini uzluksiz sifatli elektr energiya bilan taminlashda IoT texnologiyalari yordamida ma’lumotlarni internet orqali olishlari va ko‘rishlari, masofadan xizmatlarni taqdim etishlari va ular bo‘yicha tegishli qaror qabul qilishlari mumkin.

IoT texnologiyasi obyektlar, vaqt va manzil to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlarni taqdim etadi. Bugungi kunda internet texnologiyasi va IoT birlashishi natijasida xamyonbop narxlardagi sensorlar va simsiz aloqa uzatish vositalari asosida ishlaydigan katta hajmdagi elektron platformalar va innovatsion xizmatlarni hosil qiladi.

Buyumlar internetining maqsadi shundan iboratki ixtiyoriy xudduda, har qanday sharoitda, har qanday narsani va har qanday usullar yordamida xizmatdan ideal tarzda foydalangan holda ulanishni ta’minalashidadir.

Buyumlar interneti (IoT) - bu mavjud bo‘lan va rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan xolda manbalarni bir-biriga ular orqali ilg‘or va tezkor xizmatlarni taqdim etuvchi axborotlashgan jamiyat uchun global infratuzilmadir [42; 125-130-b, 88; 1-5-b].


Bu shunday tizimki mashina bilan aloqa, simsiz sensor tarmoqlari, sensor tarmoqlari, 2G / 3G / 4G, GSM, GPRS, RFID, WI-FI, GPS, mikrokontroller, mikroprotsessor va hokazolar emas. Bular "Internet of things" ilovalarini amalga oshirishga imkon beradigan ilg'or tarmoq texnologiyalar hisoblanadi.

Infokommunikatsiya obyektlarini uzluksiz elektr energiya bilan taminlash jarayonlarini masofadan monitoring qilishda IoT ga asoslangan texnologiyalarni tadbiq etishda ularni quyidagi toifalarda guruhlash mumkin:

- manbalar ishlab chiqarayotgan elektr energiya kuchlanishi to‘g‘risidagi malumotlarni olish imkonini beradi;
- olingan malumotlar asosida manbalarni boshqarish imkonini beradi;
- manbalar ish xolatidan kelib chiqib eng maqbulini ishlashini taminlab beradi [44;45;46; 236-241-b].

Jamiyatda elektr energiyaning sarfi va infokommunikatsiya tizimlarida elektr uzulishlari asosiy sabablaridan biri bu bir turdag'i elektr energiyadan foydalarish, xamda ularni nazorati va boshqaruvi uchun aqli texnologiyalarning keng joriy etilmaganligidadir. Shunday fiklar asosida infokommunikatsiya obyektlarini uzluksiz elektr energiya bilan taminlashda IoT texnologiyalarni qo‘llash “smart grid” yani gibridd energiya boshqaruv tizimi taklif etiladi. Xar bir energiya ta’minoti manbalari malumotlari bir tizimga ulanadi va ularning malumotlarini birgalikda qayta ishlash imkonini mavjud bo‘ladi. Aqli monitoring tizimlari va zamonaviy ishlab chiqilgan mobil ilovalar yordamida doimiy nazorat qilish imkonini mavjud bo‘ladi. Infokommunikatsiya obyektlarini energiya ta’minotini masofadan monitoring qilishda IoT texnologiyalarning qo‘llanilishi raqamlashtirilgan energiya tizimini shakllantirilishiga katta turtki bo‘ladi. Gibridd energiya tizimlarining o‘lchamlarini aniqlashning turli usullari orasida optimallashtirish vositalari, xususan, algoritmlar va zarrachalar to‘dasini optimallashtirish, yehtimol ularning soddaligi va qoniqarli natijalarni berish qobiliyati uchun tez-tez ishlatiladi. Energiyani boshqarish strategiyasi gibridd energiya tizimlarini optimal loyihalash va ulardan samarali foydalananishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u mavjud elektr ta’minoti va tizim komponentlarining umumiyligi ishlash muddatiga ta’sir qiladi. IoT bu bitta texnologiyaga asoslangan emas, balki u turli xil apparat va dasturiy ta’minotlarning to‘plamidir. IoT axborot texnologiyalari integratsiyasiga asoslangan yechimlarni taqdim etadi, bu

ma'lumotlar va aloqa vositalari uchun axborotlar saqlash va olish uchun ishlataladigan apparat va dasturiy ta'minotni, shuningdek, shaxslar yoki guruhlar o'rtasidagi aloqa uchun ishlataladigan elektron tizimlarni o'z ichiga oladi (1.10- rasm) [91; 146-148-b, 94; 36-37-b].



1.10- rasm. IoT ga asoslangan energiya monitoring tizimi.

IoT dasturlarining energiya samaradorligi, tezlik, xavfsizlik va ishonchlilik kabi ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirish kerak bo'lgan aloqa texnologiyalarining turli xil aralashmasi mavjud. Shu nuqtai nazardan, turli xil standartda va muhitda ishlaydigan IoT dasturlarining ehtiyojlarini qondiradigan, bozor tomonidan qabul qilingan, allaqachon xizmat ko'rsatishga qodir bo'lgan va kuchli texnologiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan boshqariladigan tarmoq texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu toifadagi standartlarga misollar Ethernet, WI-FI, Bluetooth, ZigBee, GSM va GPRS kabi simli va simsiz texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Energiya ta'minoti manbalarini monitoringi uchun mavjud bo'lgan tizimlar texnik xarakteristikalarini xamda imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zaro qiyosiy taxlil qilindi. Taxlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, ko'plab infokommunikatsiya obyektlari xamda uzluksiz elektr energiya iste'mol qiluvchi stansiyalarda energiya monitoringi uchun mo'ljalangan raqamli texnologiyalarning taminlanganlik xolati juda past darajada ekanligi aniqlandi [42; 125-130-b, 78; 192-194-b].

1.1 – jadval.

Manbalarini monitoring qilish tizimlari asosiy tavsiflarini qiyosiy tahlili.

Qurilma	Energiya samaradorligini nazorat qilish va boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (ESNvaBAT)	Elektr energiyasini texnik hisobga olish tizimini (ETHAT)	Infokommunikatsiya obyektlari ET manbalarini monitoring tizimi
O‘rnatalish holati	Statsionar	Statsionar	Mobil, web
Ma’lumotlar-ni saqlash	Korxona serveri	Korxona serveri	Cloud computing
Energiya ta’minoti manbalarini monitoring qilish xolati	Yarim avtomat	Qo‘l bilan	Masofadan
Aloqa protokoli	Simli	Simli	Simsiz
MBBT	Mavjud	Mavjud	Mavjud

Ko‘pgina mamlakatlarda qayta tiklanmaydigan elektr energiyadan foydalanishni kamaytirish yani aynan uzlusiz elektr energiya istemol qiluvchi obektlarni qayta tiklanadigan gibridd energiya manbalari bilan taminlash jarayonlari amalga oshirilmoqda. Yani ob-xavoga bog‘liq ravishda qayta tiklanadigan energiya manbalari masalan shamol, quyosh energiyasini amaliyatda qo‘llash yaxshi samara bermoqda. Infokomunikatsiya va boshqa obektlarini sifatli elektr energiya bilan taminlashda ularni sutka davomidagi ob-xavo xolatidan kelib chiqib boshqarish muammosi mavjud. Ushbu muammolarni uzlusiz elektr energiya istemol qiladigan korxonalar va davlat tashkilotlari talabidan kelib chiqib doimiy nazorat va manbalarni boshqarish uchun IoT texnologiyasini taklif qilish maqsadga muvofiq xisoblanadi. IoT dan foydalangan xolda o‘rnatalgan tizimlarni loyixalash va algoritmlash infokommunikatsiya obektlarini uzlusiz elektr energiya bilan taminlashni monitoring qilish va boshqarishda yanada samarali xisoblanadi. Turli xil talab va takliflar asosida texnologiyalarning optimal muvozanatini aniqlashga yordam beradi. Misol tariqasida

aytadigan bo‘lsak suniy intellekt algoritmlaridan foydalanish energiya ta’minoti stansiyalarining quvvatinni muvozanatlashga imkon beradi. Infokommunikatsiya obektlari va telekommunikatsiya stansichlarini uzluksiz energiya bilan taminlash jarayonlarini doimiy nazorat qilish uchun aqli monitoring va boshqaruv buyyruqlarini o‘z ichiga olgan qurilmalar ishlab chiqish zamon talabidagi asosiy vazifalardan biridir [90; 121-132-b, 89; 186-198-b].

IoTning tadbiq etish sohalari xil hisoblanadi va IoT ilovalari turli xil foydalanuvchilarga xizmat qiladi. Turli xil foydalanuvchilar toifalari turli xil ehtiyojlar uchun foydalanadi. Ob’ektlar energiya ta’minoti nazorati va boshqaruvida IoT texnologiyalarini qo‘llanilishi tavsiflari va natijaviy avzalliklari.

1.2-jadvalda keltirib o‘tilgan.

1.2 – jadval.

Energiya ta’minoti monitoringida IoT texnologiyalari qo‘llanilishi.

Ilova	Sektor	Tavsif	Afzalliklari	
Transmissiya va tarqatish (T&D) tarmog‘i	Aqlii tar-moqlar	Elektr tarmoqlarini bosh-qarish (grid asosida)	Ananaviy tarmoqlardan farqli o‘laroq, katta malumotlar va AKT texnologiyalaridan foydalangan holda tarmoqni boshqarish platformasi.	Energiya samaradorligini oshirish va taqsimlangan ishlab chiqarish va yukni birlashtirish; taminot xavfsizligini oshirish; zaxira taminot quvvati va xarajatlariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish.
	Tarmoq bosh-qaruvi	Elektr tar-mog‘ini ng ishlashi va bosh-qaruvi (grid asosida)	Tarmoqni yanada optimal boshqarish uchun tarmoqning turli nuqtalarida katta malumotlardan foydalanish.	Zaif nuqtalarni aniqlash va shunga mos ravishda tarmoqni mustahkamlash va energiya-uzilish xavfini kamaytirish.

	Mikro-grid vo-sitalari	Elektr tarmog‘i	Markaziy tarmoqdan mustaqil ravishda tarmoqni boshqarish platformalari.	Taminot xavfsizligini oshirish; mikrogridlar va asosiy tarmoq o‘rtasida o‘zaro muvofiqlik va moslashuvchanlikni yaratish; va mikrotarmoqqa ulangan istemolchilar uchun barqaror elektr narxlarini taklif qilish.
	Kenga ytiril-gan o‘lcha sh infra-tuzil-masi	Oxirgi foydala-nuvchilar	Istemolchi saytidagi yuklanishlar va harorat malumotlarini to‘plash va tahlil qilish uchun sensorlar va qurilmalardan foydalanish.	Energiya samaradorligini oshirish uchun hududlarni aniqlash (masalan, haddan tashqari konditsionerli xonalar yoki yo‘lovchilar bo‘limganda qo‘sishimcha yorug‘lik); energiya sarfini kamaytirish.
	AKK energi yasini bosh-qarish	Oxirgi foydala-nuvchilar	Akkumulator eng mos vaqtida faollashtirish uchun malumotlar tahlili	Turli vaqt oralig‘ida batareyani zaryadlash / to‘xtatish uchun optimal strategiya yaratish; energiya sarfini kamaytirish.

Yuqorida keltirilgan jadvalda IoT arxitekturasi asosida raqamlashtirilgan energiya ta’minti manbalarining amaliy natijalarining taxlili keltirilgan. IoTga asoslangan masofaviy monitoring qilish arxitekturasi, infokommunikatsiya obyektlarini sifatli elektr energiya bilan taminlashda turli xil tizimlar, yetkazib berish xizmatlari tizimi, kontent boshqaruvi asoslari, bilimlar bazasi tizimlari va atrof-muhit integratsiyasi platformasi kabi loyihalar ustida ish olib borgan. Keltirilgan masalalarni yechishda, ya’ni ko‘plab usullar va IoT texnologiyalariga asoslangan signallarni raqamli ishlash algoritmlari, hisoblash strukturalari, integratsiya xamda vizuallashtirish jarayon-

larining dasturiy va apparat majmuasini ishlab chiqish asosiy maqsad qilib olindi, jumladan:

- signallarga raqamli ishlov berishda qo'llaniladigan usullar va ularni amalga oshirish uchun mo'ljallangan IoT texnologiyalari xamda integratsiya qilish vositalarini tadqiq qilish;

- IoT texnologiyalariga mo'ljallangan kuchlanish ko'rinishidagi signallarni o'qib olish jarayonidagi apparat-dasturiy vosita integratsiyasi uchun ma'lumotlar strukturasini ishlab chiqish;

- signallarga raqamli raqamli ishlov berish algoritmlarini yaratish;

- IoT texnologiyalar va jadval algoritmik usullar yordamida funksiyalar va funksional bog'lanishlarni raqamli ishlash tizimlar strukturalarini yaratish va ularni amaliy masalarni yechishda qo'llash;

- signallarni funksional modullar yordamida raqamli ishlash jarayonlarini modellashtirish va apparat vositalarni boshqarish uchun dasturiy majmua yaratish;

- raqamli ishlov berish natijasida olingan signallarni monitoring tizimiga yuborish.

Yuqoridagi keltirilganlarni hisobga olib IoT texnologiyalariga yo'naltirilgan tizimlarning o'zaro aloqasini taminlash ya'ni integratsiya qilish muammoligicha qo'lmoqda. Xususan B.B. Mo'minov OAK va Mehnat vazirligi o'rtasida ma'lumotlarni almashish strukturasini ishlab chiqqan. Unda 150 xil tipdagi ma'lumot almashinadi. Lekin bu oqim ko'rinishidagi signallarga raqamli ishlov berish jarayonlari uchun mo'ljallanmagan.

Bundan tashqari xorijning bir qancha yetuk olimlari xam energiya ta'minoti manbalarini masofadan monitoring qilishda IoT ga asoslangan texnologiyalarni qo'llash bo'yicha samarali ishlar olib borgan. Jumladan M.Bajaj, A Rana ning "ESP8266 yordamida gibridda energiya tizimini IOT asosida boshqarish" nomli tadqiqot ishida IoT yordamida gibridda energiya tizimini boshqarish va monitoring qilish bo'yicha izlanishlar olib borgan. Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, bioyoqilg'i, yonilg'i xujayrasi va boshqalar kabi energiyaning har xil kombinatsiyasi ularning barchasi bir-biriga muqobil ishlashini taminlagan. Asosiy mezonlari sifatida ESP 8266 WI-Fi modulidan foydalangan holda veb-sayt orqali quyosh va shamol energiyasi o'rtasida almashinishlarni monitoring qilingan. Ma'lumotlar veb sayt orqali energiya manbalarini boshqaradigan ESP 8266 moduliga simsiz uzatiladi. Uzatilgan ma'lumotlar IoT yordamida masofadan turib boshqariladi. Bu foydalanuvchiga xavfsiz internet ulanishi orqali masofadan turib

moslashuvchan boshqaruv mexanizmiga ega bo‘lish imkonini beradi. Ushbu tizim foydalanuvchiga energiya manbalarini qo‘lda va masofadan turib smartfon yoki shaxsiy kompyuter yordamida boshqarishga yordam beradi [88; 1-5-b].

Qayta tiklanadigan energiya tizimlarining ishlashini baholash va tizimlarning optimal ishlashi tahlilini o‘tkazish uchun HOMER simulyatsiya mexanizmlaridan foydalanilgan. Bunda asosan o‘rtacha shamol tezligi, global gorizontal quyosh radiatsiyasi, eng yuqori yillik quvvat taqchilligi, dizel narxi va qayta tiklanadigan ulushga o‘xhash ma’lum bir sezgirlik parametrlari guruhi uchun optimallashtirilgan natijalar ushbu optimallashtirish dasturida aniq ifodalangan. Qayta tiklanadigan energiyaning optimal gibrid tizimi HOMER qayta tiklanadigan energiya dasturi tomonidan ko‘p sonli soatlik simulyatsiyalar orqali qayta-qayta ishlab chiqilishi isbotlangan. Shamol tezligi, quyosh radiatsiyasi, dizel narxi va eng kam qayta tiklanadigan ulush uchun turli qiymatlarda simulyatsiya o‘tkazish uchun ko‘rib chiqildi va bu qiymatlar tahlilda ancha moslashuvchanlikni ta’minlaydi [90; 146-148-b].

Avstraliyaning Cowan universiteti professori doktor Ohirul Qays o‘zining “qayta tiklanadigan yenergiya tizimlarini IoT yordamli SCADA tizimi orqali monitoring qilish” nomli tadqiqot ishida Wi-Fi orqali qayta tiklanadigan energiyaga asoslangan gibrid quvvat manbalarini monitoring qilish modeli xamda algoritmlari ustida tadqiqotlar olib borgan. Alovida komponentlarni masofadan turib kuzatish va boshqarish uchun IoTga asoslangan SCADA PV-shamol-batareya birlashgan tizimi joriy yetilgan. Simulyatsiya qilingan modelning kuzatilgan ma’lumotlari real vaqt rejimida tajriba holati orqali onlayn platformaga uzatiladi. Olingan natijalar bo‘yicha asosiy xulosalarni quyidagicha izoxlash mumkin:

Taklif etilgan usul real vaqt rejimida SCADA tizimi orqali uzoq joylarda o‘rnatilgan bir nechta energiya manbalarining elektr ma’lumotlarini kuzatishi mumkin. SCADA Wondyerwarye Intouch dasturiy ta’minotini va Simulink dan foydalangan holda simulyatsiya modelini birlashtirish uchun tavsiya etilgan metodologiya ma’lumotlarni IoT ga asoslangan sxema orqali uzatishi mumkin.

Taklif etilayotgan SCADA tizimi gibrid energiya tizimining holatini mustaqil ravishda kuzatish va nazorat qilish uchun eksperimental muhitni o‘z ichiga olgan holda yanada ishlab chiqilgan. RESlarni tejamkor onlayn ThingSpeak veb-sayti orqali samarali nazorat

qilish mumkin. Boshqa standart texnikalar bilan taqqoslash tavsiya etilgan usulning samaradorligini ko‘rsatadi [111].

Ushbu dissertatsiya ishida signallarga raqamli ishlov berishga mo‘ljallanganligi sababli infokommunikatsiya obyektlarini uzuksiz energiya bilan taminlash jarayonlarini monitoring qilishda, yani ishlab chiqilishi taklif qilinayotgan apparat –dasturiy majmualarning o‘zaro integratsiya qilinishda IoT ga asoslangan arxitektura va modellarni keng qo‘llashda ancha samarali amaliy va ilmiy natijalarga erishiladi.


II BOB INFOKOMMUNIKATSIYA OBYEKTLARINING ENERGIYA TA'MINOTINI MONITORINGINI FUNKSIONAL TUZILMASI VA SIGNAL O'ZGARTIRISH JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH

Bugungi kunda kuchlanish ko‘rinishidagi signallarga ishlov berish, ulardan muhim belgilarni ajratib olish hamda integrallashgan tarmoq asosida avtomatik tanib olish usullarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Buning asosiy sababalari deb shuni aytishimiz mumkinki, insoniyatni qurshab olgan qurilmalarning murakkablashishi, ular bilan o‘zaro aloqa prinsiplarining qiyinlashishiga olib keldi. Bu xolat xozirgi kunda energiya ta’moti nazorati jarayonlarini raqamlashtirishni xam chetlab o’tmadi. Infokommunikatsiya obyektlarin energiya ta’moti manbalarini masofadan monitoring qilish tizimlarida ko‘plab dasturiy ilovalarining interfeyslarida, axborot tizimlari yordamida manba turini aniqlash, manbalarni energiya ishlab chiqarish darajasiga qarab boshqarish, mexanizmlarini loyixalashtirish va amaliyotga qo‘llashga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham energiya ta’moti manbalarini masofadan monitoring qilishning optimal algoritm xamda usullarini ishlab chiqish va rivojlantirish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirda uzlusiz elektr energiya istemol qiluvchi obektlardan bo‘lgan infokommunikatsiya obyektlarini masofadan monitoring qilish usullarining nazariy hamda amaliy masalalarini yechishga katta e’tibor qaratilmoqda [93; 159-160-b, 94; 36-37-b, 95; 88-89-b].

2.1-§. Energiya ta’moti obyektlarining masofadan monitoringini funksional tuzilmasi

Energiya ta’moti manbalari monitoring jarayonlarida signal o‘zgartirish, monitoring qilish va boshqarishda birlamchi elektr toklar va kuchlanishlar ikkilamchi me’yorlangan kuchlanish ko‘rinishidagi chiqish signaliga o‘zgartirish jarayoni xamda ushbu jarayonda ishtirot etayotgan signal o‘zgartirish apparatlari va ularda kechuvchi fizik texnik effektlarini modellashtirishni taqozo etadi [3; 38-45-b, 4; 125-139-b].

Energiya ta’moti manbalari monitoringida signal o‘zgartirish jarayonlarida elektr energiyani birlamchi tok va kuchlanishlarini ikkilamchi signalga o‘zgartirishni ta’minlovchi turli fizik-texnik tabiatli elementlar signal o‘zgartirish jarayoni, ularni monitoringini modellashtirish quyidagi ko‘rinishda olib boriladi. [62;63].



2.1- rasm. Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta'minoti monitoringini amalga oshiruvchi apparatning funksional tuzilishi.

MO‘B- Masshtabli o‘zgartkich bloki

ARO‘-Analog-raqamli o‘zgartkich

AQIB-Axborotlarni qayta ishlash bloki

DXQ-Doimiy xotira qurilmasi

MP-Markaziy protsessor

OXQ-Operativ xotira qurilmasi

EBBX-Energiyaga bog‘liq bo‘lmagan xotira


Ikkilamchi signalga o‘zgartirilayotgan birlamchi kuchlanishlar U yoki I - toklar masshtabli o‘zgartkich bloki (MO‘B -bo‘lgichlar) kirishlariga beriladi va bu yerda analog qayta ishlash asosida kirish kuchlanishi yoki toki parametriga proporsional signallar hosil qilinadi, ya’ni belgilangan meyoriy miqdorgacha (5 (20) Volt) masshtabli o‘zgartirish jarayoni amalga oshiriladi. Ushbu miqdor analog-raqamli o‘zgartkichning (ARO‘) normal ishlashi uchun kerak, bunda ARO‘ operativ xotira qurilmasi (OXQ), markaziy protsessor (MP) va doimiy xotira qurilmalaridan (DXQ) tashkil topadi[4; 125-139-b, 6; 298-302-b, 63;66].

MO‘B chiqishidagi oniy signalning miqdori ARO‘ yordamida raqamli kodga o‘zgartiriladi. ARO‘ blokida kirish signalining vaqtga bog‘liqligi va raqamlashtirish amalga oshiriladi. Raqamlashtirish asosiy chastota davriga mos 14 razryadli kodning 256 tanlovi hisobida amalga

oshiriladi. Raqamlangan signaling kodlari qurilmaning raqamli qismiga, ma'lumotni qayta ishlash blokiga (AQIB) kelib tushadi.

Axborotlarni qayta ishlash blokida markaziy protsessor analog raqamli o'zgartirgichdan olingan axborotni doimiy xotira qurilmasida saqlanuvchi dasturga mos ravishda qayta ishlaydi. O'lchov natijalari energiya manbasiga bog'liq bo'limgan xotiraga (EBBX) saqlash uchun kiritiladi (agar o'lchov vositasi "o'lchash" rejimida ishlayotgan bo'lsa) hamda ko'rsatish vositasiga chiqariladi. Ba'zi bir o'lchov vositalarida ($O^{\circ}V$) grafik display (GD) xam mavjud bo'lib, ular kuchlanish va toklarning vektor diagrammalari, spektrlari, gistogrammalari va otsillogrammalarini ham ko'rsata oladilar. O'lchov va qayta ishlash natijalari aloqa interfeysi (AI) masalan RS-232, RS-485, NBIP (Hewlett-Packard Interface Bus), GBIP (General Purpose Interface Bus) yoki IEEE-488 va aloqa kanallari orqali tashqi manbalarga yani monitoring ilovalariga yuboriladi[7; 274-277-b].

Tadqiq etilayotgan monitoring apparatining asosiy afzalligi bo'lib, bir vaqt ni o'zida asosiy kattalik va parametrlar bo'lagi bir va uch fazali birlamchi toklar to'g'risidagi signallarni ikkilamchi kuchlanish kurinishidagi signalga o'zgartirib bera olishi va real vaqtda monitoring ilovasiga yetkazib berish hisoblanadi. Apparatda kechuvchi signal o'zgartirish jarayonining modeli 2.2-rasmda ko'rsatilgan.



2.2-rasm. Monitoring apparatida signal o'zgartirish va signal uzatish jarayonlarining graf modeli.

Monitoring apparatining 2.2-rasmida keltirilgan graf model asosida tuzilgan matritsa ko‘rinishidagi analitik ifodasi quyidagicha shakllantiriladi [4;6;66].

$$AU=F \quad (2.1)$$

A- parametrlar va uzatish funksiyasi matritsasi

U- tugun kattaliklari matritsasi

F- chegara kattaliklari matritsasi.

Model tugunlari xolatini belgilovchi chiqish kuchlanishlarini aniqlash uchun M_{ij} va N_{jk} ulanishlar matritsasi xamda 2.2- rasmida keltirilgan signal o‘zgartirish jarayonlari graf modeli asosida uning tugunlarini ifodalovchi kattaliklarning analitik ko‘rinishdagi modeli kuyidagicha shakllantiriladi:

$$\begin{aligned} U_{M\ddot{Y}B} &= K_{UA} U_A; \\ U_{M\ddot{Y}B} &= K_{UB} U_B; \\ U_{M\ddot{Y}B} &= K_{UC} U_C; \\ U_{M\ddot{Y}B} &= K_{UB} U_B; \\ U_{M\ddot{Y}B} &= K_{IA} I_A; \\ U_{M\ddot{Y}B} &= K_{IB} I_B; \\ U_{M\ddot{Y}B} &= K_{IC} I_C; \\ U_{M\ddot{Y}B} &= K_{M1} U_{K\ddot{E}\ddot{M}}; \end{aligned}$$

Bu yerda $U_{MO\cdot A}$, $U_{MO\cdot B}$, $U_{MO\cdot C}$ - signal o‘zgartirish apparati modelining kuchlanish ko‘rinishida monitoringini kirish kattaliklari;

I_A , I_B , I_C - signal o‘zgartirish apparati modelining tok (reaksiya) ko‘rinishidagi nazorat va monitoringini kirish kattaliklari;

K_{UA} ; K_{UB} ; K_{UC} ; K_{IA} ; K_{IB} ; K_{IC} ; K_{M1} - monitoring qilinayotgan va boshqarilayotgan kattaliklarni o‘lchov va qayta ishlash kattaligi (o‘zgartirish, meyorlash) funksiyasi o‘zagini zanjirlararo bog‘lanish funksiyasi (koeffitsienti).

Yaratilgan signal qabul qilish, qayta ishlash apparatidagi jarayonlarning graf modeli analitik ifodasi quyidagicha shakllantiriladi:

$$\begin{aligned} U_{M\ddot{Y}B} &= K_a U_a = K_b U_b = K_c U_c = K_A I_A = K_B I_B = \\ K_C I_C &= K_{M1} U_{K\ddot{E}\ddot{M}}; \end{aligned} \quad (2.11)$$

$$U_{AP\ddot{Y}} = K_{Ue} U_{M\ddot{Y}B} = K_{Ie} U_{M\ddot{Y}B} = K_{M2} U_{K\ddot{E}\ddot{M}}; \quad (2.12)$$

$$U_{AK\ddot{I}B} = K_{M3} U_{K\ddot{E}\ddot{M}} + K_{C1} U_{AP\ddot{Y}} + (K_{C5} - K_{C4}) U_K; \quad (2.13)$$

$$U_{\mathcal{E}BBX} = K_{C2} U_{AK\ddot{I}B}; \quad (2.14)$$

$$U_{KB} = K_{C3} U_{AKIB}; \quad (2.6)$$

$$U_{AI} = K_{C4} U_{AKIB}; \quad (2.7)$$

$$\frac{U_{AKIB} - U_{KEM}}{K_{M3}} + \frac{U_{AKIB} - U_{APY}}{K_{C3}} + \frac{U_{AKIB} - U_K}{K_{C5}} = K_{C3} U_{KB}; \quad (2.8)$$

$$U_{AKIB} = (K_{C3} U_{KB} + \frac{1}{K_{C4}} U_{KEM} + \frac{1}{K_{C3}} U_{APY} + \frac{1}{K_{C5}} U_K) / (\frac{1}{K_{M3}} + \frac{1}{K_{C3}} + \frac{1}{K_{C5}}); \quad (2.9)$$

$$U_{AKIB} = f(U_{KEM}, U_{APY}, U_K, K_{M3}, K_{C3}, K_{C5}); \quad (2.10)$$

Bu yerda U_{AKIB} modelning $AKIB$ tugunidagi kattalik-chikish elektr kuchlanishiga proporsional signal tugunlardagi kattaliklar va K_{M3}, K_{C3}, K_{C5} graf model bo'laklarining kismlarini uzatish funksiyalariga (koefitsientlariga) bog'liq [4;6;66].

M_{ij} – modelning i va j tugunlarini ifodalovchi matritsa elementi model tarmoqlarini tugunlarda ulanishini ko'rsatadi va ular quyidagicha shakllantiriladi:

$M_{ij}=1$; agar tugun i tarmoq j ning kirish tuguni bo'lsa;

$M_{ij} = -1$; agar tugun i tarmoq j ning chiqish tuguni bo'lsa;

$M_{ij} = 0$; agar tugun i tarmoq j ga tegishli bo'lmasa.

N_{jk} - modelning j va k tarmoqlari ulanishini ifodalovchi matritsa elementi model tarmoqlarini mustaqil konturlarda ulanishini ko'rsatadi va ular quyidagicha shallantiriladi:

$N_{jk}=1$; agar tarmoq j kontur k tarkibiga kirgan va ularning yo'nalishlari bir xil bo'lsa;

$N_{jk} = -1$; agar tarmoq j kontur k tarkibiga kirgan va ularning yo'nalishlari xar xil bo'lsa;

$N_{jk}=0$; agar tarmoq j kontur k ga kirmagan bo'lsa.

Graf modelning shakllantirilgan analitik ifodalari asosida signal qabul qilish va o'zgartirish apparatining kuyidagi statik tasniflari aniqlanadi:

$$U_{AKIB} = f(U_{KEM}), U_{AKIB} = f(U_{APY}), U_{AKIB} = f(U_K), \\ U_{AKIB} = f(K_{M3}), U_{AKIB} = f(K_{C3}), U_{AKIB} = f(K_{C5}), \quad (2.15)$$

Tadqiqotlar asosida yaratilgan signal o'zgargartirish jarayoni graf modeli, elementlari va bo'laklarining zanjirlararo bog'lanishlar

funksiyasi va parametrlarini o‘zgartirib, birlamchi energiya manbaning kattalik yoki parametrlari xamda chiqish elektr kuchlanishi kurinishidagi signal orasidagi bog‘liqliklar tadqiq etish amalga oshirilgan.

Birlamchi signal qabul qilish va o‘zgartirish apparatida kechayotgan fizik-texnik effektlar asosida birlamchi kirish kattaliklarni chiqish signaliga o‘zgartirish jarayonining modeli va uning analitik ifodasi shakllantirilgan [63,66].

2.2-§. Energiya ta’minoti obyektlarining masofadan monitoring apparatini statik va dinamik tavsiflari

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minoti qurilmalarining jarayonlarini monitoringida tokni va monitoring uchun ishlab chiqilgan apparatning tajribaviy fizik modellari orqali olingan natijalarni graf model asosida nazariy hisoblangan natijalar bilan taqqoslaganimizda amaliy natijalar nazariy natjalarga ayni yaqinligini (adekvatligini) baholash imkonи mavjud. Energiya ta’minoti manbalarini monitoring apparatlarini funksional-tuzilmaviy shakllantirish natijasida asosiy tavsiflar (o‘zgartirish funksiyalari) va manbalar tuzilmalari elementlari orasidagi o‘zaro bog‘liqliki mosligini aks ettiradigan energiya ta’minoti manbalarining morfologik tuzilmalari quriladi[38;42].


Monitoring jarayonini qurish tamoyillari va texnik ishlatilishining ko‘pligi ko‘p variantli loyihalashtirishni, ya’ni energiya ta’minoti manbalari monitoringi apparatlarining tuzilmasini tanlash muqobil majmuini ko‘rib chiqishni talab etadi. Aynan energiya ta’minotining muqobil variantlari to‘plamini shakllantirish va sifat mezonlari asosida eng yaxshi variantni tanlash manbalarning ratsional ishlash rejimlarini tuzilmaviy sintez qilish masalasini tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan xolda, infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minotini manbalarini monitoringi apparatlarini qurishda uni ratsional tuzilmasi va parametrlarini tanlashi darkor bo‘ladi. Energiya ta’minoti manbalari tanlanganidan keyin energiya ta’minoti manbalari tomonidan mikroprocessorlar bloklari va monitoring, elementlariga zamonaviy talablarni to‘liqroq qoniqtirish maqsadida optimal boshqarish kattaliklarini tanlashga o‘tish amalga oshiriladi. Infokommunikatsiya obyektlari energiya istemolchilari tomonidan qo‘yiladigan barcha talablarga javob beradigan yagona monitoringning optimal tuzilmasini tanlash uchun yuqorida ko‘rsatilgan asosiy manbalarning bazasini yaratish darkor va bu holda aniq bir elementni xamda butun tizimni

tanlash elementlarni bazadan tanlash, tanlangan optimal elementlar asosida monitoring qilish jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti manbalari monitoringi jarayonlarida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'moli jarayonlarini monitoring vaqtida manbalar holatlarini aniqlash qurilmalarining ishlatish ko'rsatkichlari katta ahamiyatga ega, chunki manbalarni nomuvofiq nazorat va boshqarish sezilarli iqtisodiy zararga hamda energiya ta'minotida uzlusiz ishlamasligiga olib keladi [3;38-45-b, 60; 63].


Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti monitoringining aniqligi va samaradorligini ta'minlaydigan kompleks yondashishni ishlab chiqish, ularning ekspluatatsion imkoniyatlarini oshirish, tuzilmani soddalashtirish, hajm va vazn ko'rsatkichlarini kamaytirish, tayyorlash texnologiyasini yaxshilash, o'lchash jarayonlarining kontaktsizligini ta'minlash, zamonaviy birlamchi datchiklarning qo'llanishi asosida tokni o'zgartirish elektr iste'molini boshqarishning dolzarb masalalari hisoblanadi. Monitoring qurilmalari bunda axborot-o'lchash va boshqarish tizimlarining asosiy elementlari hisoblanishi bilan energiya tizimining texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini deyarli to'liq aniqlaydi [73;74;75].

Xisoblangan nazariy (N) va tajribaviy (T) statik tasniflarning mikdorlari asosida ular orasidagi farq ya'ni xatolik xisoblanadi, olib borilgan tadqiqotlar natijalari (2.4- rasmga qarang) shuni ko'rsatdiki, xatoliklarning miqdori 0,04 -0,05% ni tashkil etadi.

$$\delta = \left| \frac{U_{AKHB}(T) - U_{AKHB}(H)}{U_{AKHB}(T)} \right| * 100\% = 0,05\%; \quad (2.16)$$



2.3-rasm. Chiqish signallarini statik tasniflari tadqiqoti algoritmi.



2.4-rasm. Signal o‘zgartirish apparatining statik tasniflari.

Energiya ta’minoti manbalari monitoringi qurilmasi va jarayonlarini birlamchi toklari asosidagi olingan chikish signallarining statik grafigi chiziqli ko‘rinishga ega bo‘lib, tasniflar tadqiqotlari natijasi o‘zgartkichning sezgirligini 0,04-0,05% oshirish imkonini mavjudligini ko‘rsatdi. Keltirilgan statik tasniflar asosida ko‘p parametrlri birlamchi toklarning ikkilamchi kuchlanish kurinishidagi signalga o‘zgartirishning metrologik tavsiflarini o‘zgartirish yukori aniqligi, chiqish tavsifining chiziqliligi o‘zgarkich ishlashining butun o‘zgartirish

diapazonida nazariy natijalarga adakvetligini ta'minlanligini xulosa kilish mumkin [69; 74-78-b, 70; 125-129-b].

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti qurilmasi va bo'laklarining uzatish funksiya va koeffitsientlarining turli kirish qiymatlari ($K = 0,9 - 1,1$) va o'zgarish vaqtiga doimiy sining T turli qiymatlarida ($T = 0,1 - 0,3$) olingan dinamik tasniflari tadqiqot algoritmari va natijalari 2.3 va 2.4 rasmlarda keltirilgan. Qurilmaga kelayotgan signal va undan chiqayotgan kuchlanish ko'rinishidagi signalni xisoblash algoritmlari ketma ketligi, o'zgartkich parametrlarini xisoblash jarayonlari taxlil qilindi [63].

$$U_{AKIB}(t) = KU_{A\pi}(t); \quad (2.17)$$

$$U_{AKIB A\pi}(t) = K(1 - e^{-\frac{t}{T}}) U_{A\pi}(t); \quad (2.18)$$


$$\frac{dU_{AKIB A\pi}(t)}{dt} = \omega(t) = \frac{K}{T} e^{-\frac{t}{T}} U_{A\pi}(t), \quad (2.19)$$

$$U_{AKIB \pi}(t) = U_{AKIB}(t) \sin \omega t \quad (2.20)$$


$$U_{AKIB \Sigma}(t) = U_{AKIB \pi}(t) + U_{AKIB A\pi}(t); \quad (2.21)$$

Model asosida shakllantirilgan dinamik tasniflar birlamchi toklarni apparatga ulangandan so'ng o'zgartkich signal o'zgartirish bo'laklari va elementlarining uzatish funksiyasiga bog'lik ravishda 0,02 dan 0,11 sek. mikdorgacha bo'lган vaqtida o'zining turg'un xolatiga erishishini ko'rsatdi. Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta'minoti manbalari monitoringida tadqiq etilayotgan apparatning, yuqoridagi algoritmlarda keltirilgan ketma-ketliklar va shartlar asosida davrlar kesimida dinamik tavsiflarining grafik ko'rinishidagi natijalari quyidagicha ketma-ketlikda keltirib o'tilgan.(2.5- rasmga qarang)


$$1) K=0.9, T=0.03$$



2) $K=1, T=0.03$



3) $K=1.1, T=0.03$



2.5-rasm. Signal o‘zgartirish apparatining dinamik tasniflari.


Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, signal o‘zgartirish jarayonini amalga oshirishga mo‘ljallangan o‘zgartkichning modeli yuqori shakllanganligi bilan birga shaffof fizik-texnik effektlar asosida yaratilgan. Ko‘p parametrli o‘zgartkichlar va ularda signallarni o‘zgartirish jarayonlari statik va dinamik tavsiflari aniq yechimli modellarga tayangan xolda olingan [5;7;63].

2.3-§. Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta’minotini masofadan monitoring apparat ta’minotini funksional modullari

Kuchlanish ko‘rinishidagi elektr signallariga ishlov berish usullari va ularni masofadan turib monitoring qilish xamda avtomatik boshqarishning intellektual tizimlarini yaratish muammolarini dasturiy vositalar yordamida hal etish yuzasidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda jumladan, mavjud bo‘lgan tizimlarni masofadan monitoring qilish usullaridan foydalanib, eng samaralisini infokommunikatsiya obyektlarini energiya ta’moti tizimlarini monitoring qilishda qo‘llash uchun model va apparat-dasturiy vositalarining loyixasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq xisoblanadi. Manbalar xolatini moritoring qilish majmuasining arxitekturasi funksional bloklardan tashkil topadi va xar bir blok maxsus vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan. Tadqiq etilayotgan majmua turli modullardan tashkil topgan, ular signal o‘zgartirish vositalari va apparati-dasturiy majmualarni o‘z ichiga oladi. Infokommunikatsiya

obyektlarining energiya ta'minoti manbalarini masofadan monitoring qilishda qo'llash uchun ishlab chiqilgan va tadqiq etilgan apparat aynan aniq, ishonchli va tezkor signal yetkazib berish vazifalarni bajarishga mo'ljallangan (2.6- rasm).

Energiya ta'minoti manbalarini masofadan monitoring qilishda ko'p parametrli signal o'zgartirish jarayonlarida energiya taminot manbalari joriy xolati xaqidagi axborotni tizimli monitoringi dasturiga uzatishda signal uzatish bo'lagi asosiy vazifani bajaradi. Energiya manbalarining birlamchi toklarini signalga o'zgartiruvchining tuzilmasi magnetik asosda joylashgan tok o'tkazgich qurilmasining tuzilish xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi. Energiya ta'minoti qurilmalari monitoringida asosan qurilma ishslash jarayonidagi o'zgarishlar xolati va uni boshqarishda Arduino va STM32 mikrokontrollerlari qiyosiy taxlil qilindi va eng optimali tanlandi[37; 162-163-b, 38; 60-66-b].




2.6-rasm. Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta'minotini masofdan monitoring qilish apparat ta'minotining funksional modullari.

Shunga ko'ra monitoring jarayonlarini amalga oshirishda sensorlardan kelayotgan analog signallarni qayta ishlab, tarmoq orqali masofadagi nazorat uchun mo'ljallangan, elektron platformaga yuborishda ishlatilgan qurilmalar vazifasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi.

Sensorlar. ACS712 – tok o'lchagichi, ham o'zgaruvchan, ham o'zgarmas tokda ishlaydi. Ushbu qurilma 5 V dagi va meyorlangan

tokka mutanosib analog chiqish kuchlanishini taminlaydi. Ushbu asbob integrall sxemaladaran iborat. Ushbu qurilmaning chiqish kuchlanishi ijobiy bo‘lib, tok birlamchi o‘rashning mis o‘tkazuvchanligi bilan ajralib turadi. Yuklama tokining ichki qarshiligi 1,2 mOm ni tashkil qiladi.

Qurilmaning chiqish signali analog ko‘rinishga ega, shuning uchun uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri voltmetr bilan chiqish kuchlanishini o‘lchash, analog pin va ARO‘ orqali Atmega328 mikrokontrolleriga ulanadi. Tadqiqot ishida ko‘p parametrli signallar monitoringi uchun ishlashda 0 dan 5 voltgacha chiqish kuchlanishini taminlaydi. ACS712 tok qurilmasida chiqish kuchlanishi o‘lchanadi (2.7- rasm).



2.7-rasm. Elektr o‘lchov sxemasi.

ACS712 ga 5V kuchlanishni yetkazib berish uchun (ACS712 dagi 5V pingi) Arduino NANO dan foydalaniladi. ACS712 qurilmacining asosi Arduino NANOGa ulangan. O‘lchash uchun voltmetr ACS712 ning analog chiqishiga ulanadi. Kirish diapazonining -2A dan 2A gacha bo‘lgan 12 ta o‘lchash nuqtasini berib qurilma sinab ko‘rildi. Xar bir mos keladigan o‘lchovning kuchlanish qiymati quyidagicha ko‘rsatiladi. ACS712 tok o‘zgartkichining infokommunikatsiya obyektlarining energiya istemolidan kelib chiqib o‘rganishlar natijasida quyidagi keltirib o‘tilgan chiqish kuchlanishlar o‘lchami va grafigi keltirib o‘tilgan [23; 37-45-b, 24; 143-b].


2.1-jadval

ACS712 qurilmasidagi mos keladigan o‘lchovning kuchlanish qiymatlari

№	Kuchlanish toki A	Chiqish kuchlanishi V
1.	-2	2,148
2.	-1,5	2,225
3.	-1	2,312
4.	-0,5	2,403

5.	-0,2	2,44
6.	0	2,474
7.	0,2	2,505
8.	0,5	2,546
9.	1	2,645
10.	1,5	2,727
11.	2	2,817

Ushbu 2.1-jadvaldagи malumotlarning grafik ko‘rinishidagi tasviri quyidagi 2.8-rasmda keltirilgan



2.8-rasm. ACS712 tok o‘zgartkichning statik tasnifi.

Ko‘p parametrli birlamchi toklarni o‘zgartirish censorining sezish bo‘lagiga qo‘yiladigan asosiy talablar: yuqori sezgirlik, yuqori tezlik, izolyatsion asos bilan o‘rnatishning qulayligi va samaradorligi, kichik o‘lchamlar, vazn va narxi xisoblanadi.

Sezgir bo‘lagining yuqori sezuvchanligi, kichik o‘lchamlari va yuqori tezlikga ega bo‘lishi elektr energiya ta’minoti uchun monitoring qurilmasini yaratish va o‘zgartirish bo‘lagini havo oralig‘ida izolyatsion asoslarga joylashtirish juda qulaydir. Sezish bo‘lagining differensial ko‘rinishda ishlab chiqarilishi qurilmaning signal o‘zgartirish xatoliklarini kamaytirish imkonini beradi. Ko‘p parametrli toklarini nosimmetrikligi to‘g‘risida signal xosil qilish uch fazali toklarni kuchlanish ko‘rinishidagi signalga o‘zgartirishdagi elementni ishlab chiqarishning o‘ziga xosligi asosida o‘zgartkichning signal o‘zgartirish imkoniyatlari kengayadi, qurilmaning chiqishida me’yorlangan signal ta’milanadi: 20 V va tok kuchlanish va 100 mA. Toklarining

miqdorlari va parametrlarini elektron va mikroprotsessor texnologiyasini qo'llagan holda qayta ishlash imkonи mavjud [27; 66-71-b, 31;140-b].

Nazorat qurilmalari - bu konvertor tipidagi komponentlar bo'lib, ular malumotlarini elektron signallarni keyinchalik qayta ishlash uchun elektr signallariga aylantirishi mumkin. O'zgartkichlar kirish oqimini chiqish kuchlanishiga aylantirish uchun Holl effektidan foydalanilgan. Xoll effektida elektr tokining elektronlari magnit maydon kuchlanganligidan o'tadi. Maydon elektronlarini plastinkaning bir tomoniga "surish" va ikkala tomon o'rtasida kuchlanish farqini yaratishga olib keladi. Plastinka tomondan o'zgartkichning chiqish kuchlanishi hisoblanadi.

GSM moduli SIM800L. Elektr ta'minoti manbalari joriy xolatlari va zaxira energiya to'plovchi manbalarning kuchlanish ko'rinishidagi parametrlarini uzluksiz monitoringi qilish jarayonida GSM moduli asosida ishlaydigan SIM800L signal uzatish qurilmasidan foydalanilgan. Ushbu modul xar bir axborotni qayta ishlagandan keyingi xolatni doimiy ravishda tizimli dasturiy vositaga uzatib turadi. Ushbu qurilma 95% xollarda boshqaruv tizimlari bilan aloqa jarayonini tashkil qilishda malumotlarni qabul qilish va jo'natishni tashkil qiladi. Ushbu signal uzatish moduli yordamida ko'pchilik zamonaviy tizimlar yani mikrokontrollerlar masofadan boshqariladi. SIM800L moduli mikrokontroller yordamida boshqarish mumkin bo'lgan mobil aloqa yaratishga imkon beradi. Funksiyalar diapazoni juda katta, masalan Wi-Fi tarmog'iga ulanmagan hududlarda ma'lumotlarni uzatishga mo'ljallangan. Lekin SIM800L FTP, TCP/IP va HTTP ilovalar, elektron pochta yoki MMS kabi boshqa ko'plab fukksiyalarni taklif etadi. SIM800L to'rt diapazonli GSM va GPRS mo'dulidir. U GSM850, EGSM900, DCS1800 va PCS1900 chastota diapazonlarini qamrab oladi. SIM800L dan foydalanishingiz uchun 2G micro-SIM karta kerak bo'ladi. Mikrokontrollerning SIM800L bilan RX/TX va AT buyruqlari orqali ketma-ket aloqa qiladi [116].

Atmega 328. Arduino kontrolleri Atmega328 asosida qurilgan. Platformada 14 ta raqamli, 6 ta analog kirish, 16 MGs taymer, USB ulagichi, quvvat ulagichi, ISSP ulagichi va qayta o'rnatish tugmasi mavjud. Ishlash uchun platformani USB kabeli yordamida kompyuterga ulanadi yoki AC / DC adapteri yoki batareyadan foydalanib quvvatni taminlash mumkin .

2.2-jadval.

Atmega328 mikrokontrollerining texnik xususiyatlari

№	Mikrokontroller ATmega328	Parametrlari
1.	Kuchlanishi	5 V
2.	Kirish kuchlanishi	7-12 V (tavsiya etiladi)
3.	Kirish kuchlanishi	6-20 V (chegara)
4.	Raqamli kirish/chiqish	14 ta shund, 6 ta pin
5.	Analog kirishlar	6 ta
6.	Doimiy tok kirish/chiqish	40 A
7.	Flesh xotira	32 KB, shundan 0,5 KB yuklovchi
8.	OZU	2 Kb (ATmega328)
9.	EEPROM	1 Kb (ATmega328)
10.	Takt chastotasi	16 MGs

Arduino USB ga ulanishi yoki tashqi quvvat manbai orqali quvvatlanishi mumkin. Elektr ta'minoti avtomatik ravishda tanlanadi. Tashqi quvvat AC/DC konvertor (quvvat manbai) yoki batareya orqali taminlanishi mumkin. Kuchlanish konvertori markaziy musbat qutbli 2,1 mm pin orqali ulanadi. Batareya simlari quvvat ulagichining GND va VIN pinlariga ulangan. Platforma 6V dan 20V gacha bo'lgan tashqi quvvat manbai bilan ishlashi mumkin. Agar ish davomida zo'riqishida 7V dan past bo'lsa, 5V pin 5V dan kam quvvat berishi mumkin va platforma beqaror bo'lishi mumkin. 12V dan yuqori kuchlanishlardan foydalanilganda, kuchlanish regulyatori haddan tashqari qizib ketishi va plataga zarar etkazishi mumkin. Tavsiya etilgan diapazon 7V dan 12V gacha. VIN kirish tashqi manbadan quvvatni taminlash uchun ishlataladi (USB ulagichidan yoki boshqa tartibga solinadigan quvvat manbaidan 5V bo'limganda kuchlanishi ushbu pin orqali beriladi [110].

5 V mikrokontroller va platadagi komponentlarni quvvatlantirish uchun ishlataligan regulyatsiya qilingan kuchlanish manbaidan tashkil topgan. Quvvat VIN pinidan kuchlanish regulyatori orqali yoki USB ulagichi yordamida tartibga solinadigan 5V kuchlanish manbasidan taminlanishi mumkin. Atmega328 mikrokontrolleri 32 KB flesh-xotiraga ega, shundan 0,5 KB yuklovchini saqlash uchun ishlataladi. Arduino platformasida kompyuter, boshqa Arduino qurilmalari yoki mikrokontrollerlar bilan bog'lanish uchun bir nechta qurilmalar o'rnatilgan. ATmega328 (RX) va (TX) pinlari orqali UART TTL (5V)

seriyali interfeysini qo'llab-quvvatlaydi. O'rnatilgan ATmega328 mikrosxema bu interfeysi USB orqali boshqaradi, kompyuter tomonidagi dasturlar virtual porti orqali plata bilan "muloqot qiladi". ATmega328 standart USB COM drayverlaridan foydalanadi, uchinchi tomon drayverlari talab qilinmaydi, lekin Windows da ulanish uchun Arduinoni malumot fayli kerak. Arduino dasturining Serial Monitor platformaga ulanganda matnli malumotlarni yuborish va qabul qilish imkonini beradi. Platformadagi RX va TX chiroqlari FTDI chipi yoki USB ulanishi orqali malumotlarni uzatishda miltillaydi (lekin 0 va 1 pinlarda ketma-ket uzatishdan foydalanilganda emas). Softwareserial kutubxonasi yordamida Arduinoning istalgan raqamli pinlari orqali ketma-ket malumotlarni uzatishni yaratish mumkin. ATmega328 I2S (TWI) va SPI interfeyslarini qo'llab quvvatlaydi. Arduino I2S dan foydalanish qulayligi uchun WIRE kutubxonasini o'z ichiga oladi. Muayyan buyruqlarni kodlashni chastotani almashtirish protokolida bitlar $T_d = 1,92$ ms davomiy kechikish bilan uzatiladi va shuning uchun 520,83 bit / soniya tezligi qabul qilingin. Qabul qiluvchiga ma'lumotlar uzatish boshlanishidan oldin bitlar orasidagi chegaralarni osongina topishiga imkon berish uchun uzatishni boshida 16 baytli xabar yuboriladi. Demodulyator dastlab 16 MGs soat chastotasida ishlaydigan ATmega328 qurilmasida amalga oshirilgan bo'lsada, uni boshqa AVR qurilmalariga osongina moslashtirish mumkin[46; 236-241-b, 47].

Qurilmadagi taymer va ARO' kirish signalini to'rt marta mantiqiy darajadagi nol chastotada va uch marta mantiqiy darajadagi bitta chastotada yoki 6250 Gsda namuna olish uchun o'rnatiladi. Bu shuni anglatadiki, har bir ARO' namunasini qayta ishlash uchun (16 MGs / 6250 Gs) = 2560 MP sikli mavjud. Kodga protsessordan foydalanishni o'lchash bo'yicha ba'zi hisob kitoblarni kiritish va transmitterdagi chastota xatolariga xisoblash uchun ba'zi bir kichik o'zgarishlar kiritildi.



2.9-rasm. Demulator blok diagrammasi

Har safar yangi ARO‘ namunasi olinganida, u so‘nggi 12 ta ARO‘ namunasining buferiga saqlanadi. Band pass filtrlari platformada joylashgan bo‘lib, so‘nggi 12 ta ARO‘ namunalarida ishlaydi va chiqish kattaligi hisoblab chiqadi. Sinxronizatsiya amalga oshirilgandan so‘ng, asosiy belgilar UARTga uzatiladi. AVR yadrosi ishlashi Atmel Studio 7.0.1645 yordamida C manba kodini yaratish va uni Atmega328 Xplanet mini baholash to‘plamida ishlatish orqali aniqlandi. ARO‘ namunasini olish va qayta ishslash uchun taymer sikllari kerak. Filtrlash va sinxronizatsiya operatsiyalarini, shuningdek demartlangan belgilarni UARTga uzatishni o‘z ichiga oladi.

Bir ARO‘ namunasi uchun 2560 MP sikli mavjudligini hisobga olsak, bu $(749/2560)*100\% = 29,3\%$ dan asosiy foydalanish hisoblanadi [112].

Bu erda modul + 5V standart tartibga solinadigan elektr ta’mintiga ulangan va 3.7-rasmda ko‘rsatilganidek UART interfeysi o‘rnatilgan. Faqatgina RXD Arduinoni TXD modulga ulash kerak va TXD Arduino moduli RXD ga rezistor kuchlanish bo‘luvchisi orqali ulanadi. Ushbu kuchlanish taqsimlagichi arduino tomonidan yuborilgan 5V mantiqiy signalni modul uchun mos bo‘lgan + 3.3V mantiqiy signallariga aylantirish uchun taqdim etilgan. Arduino va modul sohasini alohida quvvat manbalari ishlatilganda kuchlanishni aniqlash uchun ulangan bo‘lishi kerak. Ushbu qismdagagi tadqiqot ishi Sim800 texnologiyasini simsiz elektr signallarni o‘lchash tizimiga tatbiq etishni va taklif qilinayotgan tizimning maqsadga muvofiqligini taklif qilindi.


Energiya ta'minoti manbalarini masofadan monitoring qilishda bir qancha qurilmalar (apparat ta'minotini tashkil etuvchilar) vazifasiga ko'ra taxlil qilindi. Apparat ta'minotining asosiy bo'lagi bo'lgan mikrokontrollerlar parametrlariga ko'ra testlandi.

2.3-jadval.

Mikrokonltollerlarni ishslash vaqtি bo'yicha testlash.

Nº	Modul	Test1(ms)	Test2(ms)	Test3(ms)	Test4(ms)	O'rtacha(ms)	Siklik test(s)
1	NANO	1,62	1,67	1,55	1,58	1,6	1,14
2	UNO	1,64	1,58	1,57	1,55	1,59	1,53
3	MEGA	1,48	1,42	1,42	1,44	1,44	0,99
4	STM8	1,28	1,26	1,45	1,18	1,29	0,85
5	STM32	1,25	1,27	1,4	1,23	1,28	0,81

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan mikrokontrollerlar parametrlari va ishslash tezligiga ko'ra testlandi. Xar xil turdagи energiya ta'minoti manbalari telekommunikatsiya stansiyalarining energiya istemoli balansidan kelib chiqqan xolda uzlusiz elektr energiya bilan taminlashga mo'ljallangan. Manbalarning elektr energiya ishlab chiqarishi xamda obyektlarning iste'molini monitoringi uchun tadqiq etilayotgan mikrokontrollerlarning eng optimallari sinovdan o'tkazildi (2.10- rasm).



2.10-rasm. Monitoring qurilmasini testlashdan olingan natijalar

Natija shuni ko'rsatadiki Atmega328 mikrokontrolleri energiya ta'minoti manbalarini monitoring jarayonlarini amalga oshirish xamda dasturiy interfeyslar bilan bog'lashda biz uchun eng maqbuli deb topildi. Monitoring jarayonlarini amalga oshirishda xududlarda mavjud bo'lgan energiya ta'minoti manbalari xolatini aniqlashda, turli xil sezgir elementlar va ularidan keluvchi malumotlarni qayta ishlab monitoring ilovalariga yuborishda Atmega328, xamda signal uzatish modullaridan tashkil topgan apparat majmua ishlab chiqildi[54].

Apparat majmuani ishlab chiqishda qo'llanilgan mikrokontrollerning real vaqtdagi foydali ish koefitsienti xisoblandi.

$$K_{\phi} = \frac{(T_c - T_r)}{T_c} \quad (2.22)$$

Bu yerda K_F –foydali vaqt koefitsienti, T_c -umumi vaqt, T_r -malumot uzatish vaqt.

Bu o'rganish bosqichi simulyatsiya va tajriba to'g'ri degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Arduinodan foydalangan holda real model usulini joriy etishning ushbu tajribasi boshlang'ich bosqichida MP o'qitish vositasi sifatida faqat bitta Arduino platformasi mavjud. Bu g'ayrioddiy emas, chunki, bir tomonidan, MP tizimi faqat so'nggi o'n yil ichida O'zbekistonda rivojlangan bo'lsa, boshqa tomonidan rivojlanayotgan Arduino dasturiy ta'minoti o'qitish vositasi sifatida endigina qabul qilishni boshladi va biz o'tkazgan tajriba natijasida malumot uzatish vaqt $T_r = 1.4233 \text{ ms}$ ni tashkil qildi.

2.4-§. Energiya ta'minoti manbalarining monitoringi apparatidagi signal o'zgartirish jarayonlarini parametrik tadqiqi

Energiya ta'minoti manbalari monitoringi apparatlari jarayonlarini signal o'zgartirish va xolatlarni masofadan nazorat qilishning kompleks tizimlarini joriy etishda signal o'zgartkichlarining elementlarini tanlash mezonlari aloxida o'rinni tutadi. Ushbu mezonlardan kelib chiqqan xolda ishlab chiqilgan algoritm va apparat taminotning funksional imkoniyati quyidagilar bilan izohlanadi [40].

- elektr energiya manbalarini miqdorini aniqlash va joriy etish xarajatlarini qoplash muddatini kamaytirishni e'tiborga olish, energiya manbalari o'rnatilmagan holatda transformator va kabeldagi qo'shimcha isroflarni aniqlash, bir yillik elektr energiya iqtisodini hisoblash va boshqaruv tadqiqotlari jarayonida o'zgartiriluvchi quvvat miqdorlarini aniqlash;

- akkumlyatorlar, UPS kabi qurilmalardagi tok va kuchlanishni doimiy ravishda monitoringi qilib borish xamda natijalarni grafik ko'rinishida monitoring tizimiga yuborish.

Energiya ta'minoti manbalarini masofadan monitoring qurilmalarida uzlucksiz signal o'zgartirish va xolatlarni masofadan monitoringi qilishdp qurilma tuzilishining o'zgartirish bo'laklarini ratsional tanlash tadqiqot algoritmi blok sxemasi 2.11-rasmda keltirilgan.



2.11- rasm. Qurilma tuzilishini ratsional tanlash algoritmi.

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti manbalari monitoringida birlamchi toklarning ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi signalga o'zgartirish qurilmasining aniqligi belgilangan entropiya xatoligi asosida aniqlanadi [43;50].

$P = \{P_1, P_2, P_3, \dots, P_n\}$ va $B = \{B_1, B_2, \dots, B_n\}$ miqdorlarining ratsional vektorini qurish yo'li bilan hal qilinadi. $A(I_{e,k}, P(V)) = \min \Delta_e(I_{e,k}, P(V))$, $I_{e,k} \in (I_{k \min}, I_{k \max})$, $P(V) \in D(P)$

$$(2.23) \quad A(I_{e,k}, P(V)) = \min \Delta_e(I_{e,k}, P(V)), \quad I_{e,k} \in (I_{k \min}, I_{k \max}), \quad P(V) \in D(P)$$


Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti manbalarida ko'p fazali birlamchi toklarning ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi signalga o'zgartirish qurilmasining o'zgartirish bo'laklarining tezligi dinamik xususiyatlari bilan belgilanadi, tezlik va inersiyaning asosiy ko'rsatkichi vaqtning doimiysi T dir.

Alovida elementlarning vaqt konstantalariga asoslanib, biz butun T_{PR} qurilmaning vaqt doimiyligini hisoblashimiz mumkin. T_{PR} ni nazariy yoki eksperimental ravishda olingan o‘tish chiziqlarining yaqinlashishi asosida ham olish mumkin. Monitoring manbalari ko‘p fazali birlamchi toklarining ikkilamchi kuchlanish ko‘rinishidagi signalga o‘zgartirish qurilmasining ishlash mezoniga muvofiq minimal T_{pr} vaqt doimiysini topish muammofiga qadar kamaytirilishi mumkin [97].

$$F(I_{ek}, P(V)) = \min T_{pr}(I_{ek} \in (I_k \min, I_k \max)), P(V) \in D(P) \quad (2.24)$$

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minoti monitoringi manbalari ko‘p fazali birlamchi toklarining ikkilamchi kuchlanish ko‘rinishidagi signalga o‘zgartirish datchigining o‘zgartirish bo‘lakchalari parametrlarini hisoblash va ratsionallash algoritmi asosida xulosa qilish mumkinki, algoritmning asosiy bosqichlari energiya ta’minoti tizimining quvvatini boshqaruvi va boshqaruv tizimlari talablaridan kelib chiqqan holda kirish ma’lumotlari qatorini tayyorlashda, taqsimlashni hisoblash va berilgan taqsimotga erishish va magnit oqimi, qurilmaning parametrlarini hisoblashda, natijalarni ratsionallash mezonи, cheklashlarni shakllantirishda maqbul usulini tanlashda, o‘zgaruvchan parametrlar uchun daslabki yaqinliklarni va $P = (P_1, P_2, P_3, \dots, P_N)$ -yechimlar sohasini tanlashda ishlatiladi [87].

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minoti monitoringi qurilmalarida birlamchi toklarini signalga o‘zgartirish asosiy vazifa bo‘lib, belgilangan talablarga javob beradigan va qabul qilingan ratsionallik mezoniga muvofiq keluvchi eng yaxshi sifatli, qiymatli va me’yorlangan chiqish kattaliklarini ta’minlashdir [90; 121-132-b].



2.12-rasm. Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti manbalarining monitoringi apparatini parametrlarini hisoblash va ratsionallash algoritmining blok sxemasi.

D (P) ruxsat berilgan qiymatlar majmuasining P boshlang'ich yaqinlashishining miqdorini tekshirish, parametrlik ratsionalizatsiya usulini tanlash, muammoning ko'p qirrali ekanligini tekshirish, qidiruv maydonida Uechik chiqish kuchlanishlarining maqbul miqdorlarini tekshirish, hisoblangan qiymatlar va parametrlarni aniqlash imkonini beradi [77; 174-179-b].

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti monitoringida reaktiv quvvat manbalari ko'p fazali birlamchi toklarining ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi signalga o'zgartirish qurilmasiining o'zgartirish bo'laklarini tadqiqoti 2.12-rasmida ko'rsatilgan algoritmga muvofiq amalga oshiriladi. Qurilma tuzilishining tamoyilining umumiyligi uslubiyati asosida bosqichma-bosqich parametrik hisoblash va tadqiq etish amalga oshiriladi. Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti monitoringi va signal o'zgartirkichlari boshqaruvi jarayonlarini birlamchi toklarini signalga o'zgartirish bo'laklarini loyihalashning qiyinchiliklaridan biri U_{Ech} chiqish kuchlanishi uchun maqbullik meyoriy mezonini tanlashdir. Signal o'zgartirish bo'laklarini tuzilishi dastlabki ma'lumotlari I_k [I_{min} , I_{max}] – birlamchi kirish toklari, birlamchi toklarni magnit kattaliklarga o'zgartirish bo'lagi parametrleri, magnit o'zakning bo'ylama, ko'ndalang va vertikal parametrleri magnit o'zgartirish bo'lagi va qismlarining geometrik o'lchamlari tadqiq etildi, bular sezgir bo'lakning parametrleri U_{Echik} va I_{Echik} kattaliklaridir[78; 192-194-b].

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti monitoringi qurilmalaridagi jarayonlarini birlamchi toklarining ikkilamchi signalga o'zgartirkichning ratsional parametrik tuzish natijasida uning parametrleri va qiymatlarini o'z ichiga oladigan ratsional kattaliklar I_k , U_{Echik} , δ , W_2 , R_μ ni topish kerak. Ratsionallashtirish natijasida qurilmlarning parametrlarini topish kerak, bunda chiqish kuchlanishining ratsionalligi mezonining maqbul qiymati U_{Echik} , -chiqish miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$U_{\text{ЭЧИК}}(\Pi) = pa\bar{u} \cdot U_{\text{ЭЧИК}}(\Pi), pa\bar{u} \cdot \Pi = D(\Pi) \quad (2.25)$$

bu yerda $pa\bar{u} \cdot U_{\text{ЭЧИК}}(\Pi)$ ratsionallashtirilgan $U_{\text{ЭЧИК}}(\Pi)$ - chiqish kuchlanishi qiymatlari, $D(\Pi)$ - berilgan R_μ parametrler miqdorlari uchun mumkin bo'lgan, ya'ni ular qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar yechimlar miqdorlari [76].

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti monitoringi qurilmalarining jarayonlarini birlamchi toklarini signalga o'zgartirish ratsional tuzilishini aniqlash jarayonida qurilma o'z funksiyalarini bajarishini, kirish qiymatlarini o'zgartirish va o'lhash oralig'idan tashqariga chiqmasligi va ishlashini davom ettirishini hisobga olish kerak, bunda $I_{kir} = (I_{min}, I_{max})$, bu erda $I_{kir \ min}$, $I_{kir \ max}$ kirish miqdorlarining minimal va maksimal qiymatlari - quvvat manbalarining hosil qilayotgan toklar.

Ratsional parametrlarni qidirish uchun qurilmaning matematik modeli shakllantirildi. Matematik modellarning ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, birinchidan, o'zgartkichlar informatsiondir, ikkinchidan, ular haqiqiy o'zgartirish jarayonlarida ishtirok etadilar (II – bobning dastlabki ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan va taqdim etilgan apparat ta'minotdan olingan tajriba ma'lumotlar va matematik modellarning mosligini tasdiqlaydi), uchinchidan, chiqish miqdori va modellarning parametrlari o'zgaruvchan parametrlar va miqdorlarning kirish ta'sirlari bilan o'zaro bog'liqligini aniq aks ettiradi, to'rtinchidan, bu matematik va graf modellar juda sodda va mikroprotsessor monitoringi tizimlari tatbiq etilgan. Yuqorida aytilganlarning barchasi ushbu matematik va graf modellar maqbul tuzilish uchun ishlatiladigan matematik modellarga qo'yiladigan talablarga to'la javob berishini ko'rsatadi. Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minotida ko'p parametrli birlamchi toklarining ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi signalga o'zgartirishga asoslangan majmularini loyihalashda eng katta vazifalar aniqlikning oshishi, chiziqli statik tavsifni olish, ishonchlilikning oshishi, diapazon va signal o'zgartirish imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'liq [68; 113-124-b, 69].

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti manbalarini monitoringida signal o'zgartirish jarayonlarini loyihalashtirishdagi asosiy vazifa, qo'yilgan talablarni qoniqtiradigan va qabul qilingan mezon nuqtai nazaridan eng yaxshi asosiy tavsiflarni olish hisoblanadi. Qurilmani loyihalashtirishda birlamchi tokni o'zgartirish diapazoni ($0 \div 1000$ A), sezgirlik ($0.5 \div 2$ V/A), ishonchlilik (0.95), tezkorlik (0.1 sek) va aniqlik ($\div 0.5\%$) mezonlari talabalarini ta'minlash murakkab masalalardan hisoblanadi.

Qurilmani parametrik loyihalashtirish natijasida o'zgartkichning a_{OPT} kengligi va b_{OPT} balandligi, $l_{x.o OPT}$ havo oralig'ining balandligi, $S_{SE OPT}$ sezgir elementning kesim yuzasi, sezgir elementning $w_{SE OPT}$ o'ramlar soni, μ_{OPT} po'latning magnit singdiruvchanligiga mos keluvchi qiymatlarni topish zarur bo'ladi, ular qurilmaning umumiy parametrlarini (\bar{a}) tashkil etadi[38; 60-66-b].:

$$\bar{a} = \{a_1, a_2, a_3, a_4, a_5, a_6\} \quad (2.26)$$

bu yerda: $a_1=a_{OPT}$; $a_2=b_{OPT}$; $a_3=l_{x.o OPT}$; $a_4=S_{SE OPT}$; $a_5=w_{SE OPT}$; $a_6=\mu_{OPT}$.

Qurilmaning sezgirlik, aniqlik va tezkorlik parametrlari bo'yicha loyihalashtirishning asosiy masalalarni ko'rib chiqamiz. Sezgirlik mezoni bo'yicha qurilmani loyihalashtirish masalasi quyidagicha

tavsiflanadi va tanlangan tuzilma bo‘yicha quyidagi statik tavsifga ega bo‘lamiz:

$$U_{\text{quk}} = 2 \pi f w_{C\Theta} S_{C\Theta} w_{\kappa\mu} \mu_0 \mu \frac{I}{l_{n\mu} + \mu l_{x.o}} I_{1\phi} \quad (2.27)$$

Qurilma sezgirligini oshirish masalasi real tavsifni chiziqli o‘zgartirishga bog‘liq ravishda approksimatsiyalash yo‘li bilan hal etiladi:

$$U_{\text{quk}} = A I_{1\phi} + B \quad (2.28)$$

Δ_E entropiyali xatolik asosida qurilmaning aniqligini oshirish uchun aniqlik bo‘yicha quyidagi tatqiq masalasi δ_{Σ} tashkil etuvchilarini minimallashtirish yo‘li bilan hal etiladi, aynan:

$$\delta_{w_{C\Theta}}, \delta_{S_{C\Theta}}, \delta_{x.o} \dots \quad (2.29)$$

U holda

$$\Delta_{\Theta} = K_{\Theta} \cdot \delta_{\Theta} = K_{\Theta} \cdot \sqrt{\delta_{w_{C\Theta}}^2 + \delta_{S_{C\Theta}}^2 + \delta_{x.o}^2 + \dots} \quad (2.30)$$

Signal o‘zgartirish jarayonini monitoringi qilishda parametrlarini xisoblash va takomillashtirish yuqorida keltirilgan apparat ta’motining funksional tuzilmalari va graf modellari asosida bajarilgan[54; 66].


2.4.1-§. Energiya ta’moti manbalarining monitoring signallarini meyorlash

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’moti manbalarini monitoringi jarayonlariga Arduino texnologiyalarining joriy etilishi qayta tiklanuvchan energiya manbalarini integratsiyalashda energiya ta’moti ishonchliligi va sifatini oshirish hisobiga zararni kamaytirishga imkon beradi. Bu texnologiya qurilma elektr energiyasining ratsional iste’moli, energiya ta’motidagi uzilishlarni qisqartirish maqsadiga yo‘naltirilgan. Foydalanish jarayonidagi operativlik va reaksiyaning aktivligi talab qilinayotgan sifatni belgilaydi[68; 113-124-b, 75].

Zamonaviy avtomatlashtirish vositalaridan iborat infokmmunikatsiya obyektlari energiya ta’moti tarkibiga turli xildagi energiya manbalarining samaradorligini adaptiv boshqarishga yo‘naltirilgan tizimlar kiradi. Shundan kelib chiqib tadqiqot doirasida shu kabi tizimning algoritmini ishlab chiqish amalga oshirilgan. Algoritmda energiya ta’moti manbalarini elektr energiya ishlab chiqarish quvvatining malum kuchlanish bo‘yicha shartlari asosida tashkil etilgan. Yuqorida keltirib o‘tilgan apparat ta’motining

funksional modullari asosida qurilmada kechuvchi, yani manbalardan keluvchi kuchlanish ko‘rinishidagi signallarni qayta ishlab markazlashgan monitoring tizimiga yetqazishni taminlab beradi. (2.14-rasm)

Ishlab chiqilgan algoritmda infokommunikatsiya obektlarining energiya istemolidan kelib chiqqan xolda manbalarning bir qancha parametrlari yuboriladi va kerak bo‘lgan xolatlarda mikrokontroller dasturiy vositalarida biriktirilgan formulalar asosida aniqlikga erishish taminlanadi [4; 6; 298-302-b, 7; 274-277-b].



2.13-rasm. Energiya ta'minoti manbalari monitoringi apparat majmuasining ishlash algoritmi.

Arduino mikrokontroller blokining boshqaruvi dasturi C++ dasturlash tilida muhitida yaratilgan bo‘lib, elektr energiya manbalarini iste’molchi yuklamasiga bog‘liq holda monitoring qilish uchun ishlab

chiqilgan algoritm asosida ishlaydi. U manbalardan keladigan signallarga mos ravishda manba kuchlanishlari qiymatlarini hisoblaydi va berilgan shartlar ko‘ra ularni eneriya ta’minoti qurilmalariga ulab beradi. Bunda qayta tiklanuvchi energiya ta’minoti manbalari (ShET va QET) asosiy manba hisoblanib, ular energiya istemoli qurilmalariga relelar orqali ulanadi. Mikrokontroller bloki ShETdan kelayotgan signalni qurilma sezgir elementi yordamida hisoblaydi. Agar ShETdan kelayotgan kuchlanish 48V yoki undan kattaroq bo‘lsa ($U_2 \geq 220V$), mikrokontroller bloki uni rele boshqaruv qurilmasi yordamida energiya ta’minoti qurilmalariga ulaydi. Agar ShETdan kelayotgan kuchlanish 48V dan kam bo‘lsa ($U_2 < 220V$), mikrokontroller bloki keyingi manba QETdagi kuchlanishni datchik yordamida hisoblaydi. Agar QETdan kelayotgan kuchlanish 48V yoki undan kattaroq bo‘lsa ($U_3 \geq 48V$), mikrokontroller bloki uni rele boshqaruv qurilmasi yordamida boshqa energiya ta’minoti manbalariga ulaydi. QETdagi kuchlanish ham 48V dan kam bo‘lsa ($U_3 < 48V$), u holda navbatdagi manba METdagi kuchlanishi aniqlanadi. Agar METdagi kuchlanish 48Vdan kamaysa yoki ushbu manba ishdan chiqsa ($U_1 < 220V$), u holda mikrokontroller bloki rele boshqaruv qurilmasi yordamida AB zahira manbaini rele orqali energiya istemoli manbasiga ulaydi. Shu bilan birga mikrokontroller bloki ABdagi kuchlanishni datchik yordamida ma’lum vaqt oralig‘ida hisoblab boradi va belgilangan port yordamida avariya signalini malumot uzatish yani GSM moduli orqali web saxifaga uzatadi. Monitoring qilish uchun mo‘ljallangan pwcontrol.uz tizimida esa ushbu jarayonda qurilmalardan kelayotgan parametrlar asosida nosozlik xolatini aks ettiruvchi malumot xosil bo‘ladi[55; 149-156-b, 58; 66-71-b].

Ushbu tizimda qayta tiklanuvchi elektr ta’minot manbalari (ShET va QET) asosiy manba hisoblanganligi uchun ulardagi kuchlanishi doimiy tekshirib turiladi. Ularda ishlab chiqilayotgan kuchlanish ixtiyoriy vaqtda 48V dan oshsa ($U_2 \geq 48V$ yoki $U_3 \geq 48V$) energiya istemol qiluvchi obektlar qaysi manbara ulanganidan qatiy nazar, uziladi hamda rele orqali qayta tiklanuvchi elektr ta’minot manbalaridan biriga ulanadi.

Qurilma uchun ishlab chiqilgan immitatsion modelda qo‘llanilgan konvertor, MET hamda ShETdan keluvchi 220V o‘zgaruvchan kuchlanishni 48V o‘zgarmas kuchlanishga o‘zgartirib beradi.

Immitatsion modeldag‘i GSM modul ma’lumotlarni ko‘rish, tahlil qilish va monitoring tizimiga uzatish uchun hizmat qiladi. Sensorlar Arduino mikrokontroller blokining xamma portlariga ulangan bo‘lib, u

operator tomonidan zarur bo‘lganda tizimni tahlil qilish va malumotlar bazasiga uzlucksiz taminlab berish uchun mo‘ljallangan. GSM moduli Arduino mikrokontroller blokining D0 (RX), D1 (TX) raqamli portiga ulangan bo‘lib, manbalarning quvvatlari, sarflanayotgan energiya va adaptiv boshqaruv to‘g‘risidagi ma’lumotlarni monitoring markazi serveriga real vaqt davomida mobil internet tarmog‘i orqali yuborish uchun hizmat qiladi.

Model yordamida energiyani MET, ShET, QET, AB sidan va manbalar kombinatsiyasidan olishda qurilmaning chiqish signali o‘zgarishlarini tadqiq qilinadi[94; 36-37-b, 95; 88-89-b].

2.4.2-§. Monitoring apparatlarining xatoliklari va ishonchlik ko‘rsatkichlari

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’mnoti manbalari monitoringi jarayonlarini amalga oshirish uchun apparatning ishonchli ishlashining umumiyligi xolatini belgilaydigan omillardan biri bu qurilmaning signal o‘zgartiradigan aloxida bo‘laklari va elementlarining ishonchli ish xolatidir. Birlamchi tok o‘zgartirgichning signallari yordamda ikkilamchi kuchlanish ko‘rinishidagi signallar xosil qilish tamoyilini taxlil qilish asosida mumkin bo‘lgan xolatlarni o‘rganish usuli ishlab chiqilgan bo‘lib, ishonchlilik ko‘rsatkichlari va o‘zgartirish elementlarining xolatlarini tadqiqt natijalari 2.4-jadvalda keltirilgan.

$$P_{\text{курилма элементи}} = 0,99; \quad (2.31)$$

$$P_{\text{электр ўтказгич}} = 0,99;$$

2.4-jadval.

Ikki elementli apparatning ish holati ehtimolligi malumotlari.

Nº	Apparat elementi holati	Apparat ishchi holati ehtimolligini xisoblash modeli	Apparat elementlari va ularning holatlari	Natijalar
1.	S1	$P_1 P_2$	1;2	$0,99 * 0,99$
2.	S2	$P_1(1 - P_2)$	3	$0,99(1 - 0,99)$
3.	S3	$P_2(1 - P_1)$	3	$0,99(1 - 0,99)$

*1 - birlamchi cho‘lg‘am ish xolatda, 2 - ikkilamchi cho‘lg‘am ish xolatda, 3- apparat ishdan chiqqan xolati

$$P_{\text{total}} = P_1 P_2 - P_1(1 - P_2) - P_2(1 - P_1) = 0,98.$$

Jadvalda keltirilgan ikki elementli bir fazali birlamchi tokni ikkilamchi kuchlanish ko‘rinishidagi signalga o‘zgartirishning ishlash tamoyilini tahlili asosida uch elementli apparatlar ishonchlilagini aniqlash imkon beruvchi holatlari shaklida keltirilgan[76;77].

Birlamchi toklar monitoringi apparatlarining elementlarini mumkin bo‘lgan ishonchli ishlash holati belgilovchi faktorlaridan hisoblanadi. Birlamchi toklarni ikkilamchi signalga o‘zgartirish uch elementli apparatning asosiy o‘zgartirish elementlarini (magnit o‘zgartirish elementi – magnit o‘zak, sezgir element (Rogovskiy belbog‘i, ikkilamchi oddiy yoki yassi o‘lchov chulg‘ami va tarmoq tok o‘tkazgichini ish holatda bo‘lish ehtimolligi mos ravishda quyidagicha qabul qilingan:

$$\begin{aligned} P_{\text{магнит}} &= 0.99; \\ P_{\text{сезгир элемент}} &= 0.99; \\ P_{\text{бirlамчи чулгам}} &= 0.99; \end{aligned} \quad (2.32)$$

Uch elementli apparatning ish holatlarini ko‘rsatkichlarini umumlashtirib, 2.5-jadvalda keltirilgan apparatning ishchi holati ehtimolliklari modellari asosida majmuuning umumiylis qobiliyati ehtimolligi shakllantirilgan.

2.5 – jadval.

Uch elementli apparatning ishchi holati ko‘rsatkichlari

Nº	Apparat aloxida elementi holati	Apparat ishchi holati ehtimolligini xisoblash modeli	Apparat elementlari va ularning holatlari	Natijalari
1.	S1	$P_1 P_2 P_3$	1;2;3	0,970299
2.	S2	$P_1 P_2 (1 - P_3)$	2	0,009801
3.	S3	$P_1 P_3 (1 - P_2)$	1	0,009801
4.	S4	$P_2 P_3 (1 - P_1)$	1,2	0,009801
5.	S5	$P_1 (1 - P_2) (1 - P_3)$	1,2	0,000099
6.	S6	$P_2 (1 - P_1) (1 - P_3)$	2,3	0,000099
7.	S7	$P_3 (1 - P_1) (1 - P_2)$	1,3	0,000099

*1 -magnit o‘zgartirish elementi ishdan chiqqan xolat, 2 -sezish elementi ishdan chiqish xolati, 3-tarmoq to‘k o‘tkazgichi ishdan chiqish xolati

Bir fazali tokni monitoringida uch elementli apparatning umumiy ishonchlilik ko'rsatkichi R_{umumi} ishchi holatlari ehtimolliklarini xisoblash modellari asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$P_{umumi} = P_1 P_2 P_3 - P_1 P_2 (1 - P_3) - P_1 P_3 (1 - P_2) - P_2 P_3 (1 - P_1) - \\ P_1 (1 - P_2) (1 - P_3) - P_2 (1 - P_1) (1 - P_3) - P_3 (1 - P_1) (1 - P_2) = 0,9875. \quad (2.25)$$

Birlamchi toklarni kuchlanishga o'zgartirish to'rt elementli apparatining signal o'zgartirish tamoyilini tahlil qilib, o'zgartirish elementlarining ishonchliliginini aniqlash mumkin bo'lgan holatlari tuzilgan. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, barcha o'zgartirish elementlarining mumkin bo'lgan ish holatlarining ehtimolligini umumlashtirilib, majmua ishslash holatlari ehtimolligi aniqlanadi [70; 126-127-b].

Uch fazali birlamchi toklarini kuchlanish ko'rinishidagi signalga o'zgartirish to'rt elementli apparatning asosiy o'zgartirish elementlarining (magnit o'zaklar, sezish elementi va qo'shimcha sterjenlar va tok o'tkazgichlar birlamchi chulg'amlar) ish holatda bo'lish ehtimoli quyidagicha qabul qilingan [71; 48-49-b].

$$P_1 = 0.99; P_2 = 0.99; P_3 = 0.99; P_4 = 0.99; \quad (2.33)$$

Apparat elementlarining ish holatlarda bo'lish ehtimolligini umumlashtirib, to'rt elementli majmuuning ish xolati ehtimolligi 2.6-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar asosida shakllantirilgan:

2.6 – jadval.


To'rt elementli apparatning ish holati ko'rsatkichlari

No	Apparat alovida holati	Apparat ish holati modellari	Apparat elementlari ehtimolligining miqdoriy ko'rsatkichlari	Apparat qismlari va ularning umumiy holatlari
1.	S1	$P_1 P_2 P_3 P_4$	0,96059601	1;2;3;4
2.	S2	$P_1 P_2 P_3 (1 - P_4)$	0,00970299	1;2;3
3.	S3	$P_1 P_2 P_4 (1 - P_3)$	0,00970299	1;2;4
4.	S4	$P_1 P_3 P_4 (1 - P_2)$	0,00970299	1;3;4
5.	S5	$P_2 P_3 P_4 (1 - P_1)$	0,00970299	2;3;4
6.	S6	$P_1 P_2 (1 - P_3)(1 - P_4)$	0,00009801	1;2
7.	S7	$P_2 P_3 (1 - P_1)(1 - P_4)$	0,00009801	2;3
8.	S8	$P_3 P_4 (1 - P_1)(1 - P_2)$	0,00009801	3;4
9.	S9	$P_1 P_4 (1 - P_2)(1 - P_3)$	0,00009801	1;4
10	C10	$P_1 P_3 (1 - P_2)(1 - P_4)$	0,00009801	1;3

11	C11	$P_2 P_4 (1 - P_1)(1 - P_3)$	0,00009801	2;4
12	S12	$P_1 (1 - P_2)(1 - P_3)(1 - P_4)$	0,00000099	1
13	S13	$P_2 (1 - P_1)(1 - P_3)(1 - P_4)$	0,00000099	2
14	S14	$P_3 (1 - P_1)(1 - P_2)(1 - P_4)$	0,00000099	3
15	S15	$P_4 (1 - P_1)(1 - P_2)(1 - P_3)$	0,00000099	4

*1 -magnit o‘zak, 2 -sezish elementi, 3-qo‘shimcha sterjenlar,4 - birlamchi chulg‘am

Yuqorida keltirib o‘tilgan solishtirma jadvallari asosida apparat bo‘laklarining ishonchli ishlashining umumiyligi xolati belgilandi. Apparat bo‘laklari elementlarini xisoblashni doimiy ravishda keltirilgan qiymatlar asosida grafiklar chizilib uchun dasturiy mobil ilovalar orqali aks ettirilgan (2.14- rasm) [69;71;72].



2.14-rasm. Apparat bo‘laklari elementlarini xisoblash.


$$\begin{aligned}
P_{\text{ymxuu}} = & P_1 P_2 P_3 P_4 - P_1 P_2 P_3 (1 - P_4) + P_1 P_2 P_4 (1 - P_3) - P_1 P_3 P_4 (1 - P_2) + P_2 P_3 P_4 (1 - P_1) - P_1 P_2 (1 - P_3) (1 - P_4) \\
& + P_2 P_3 (1 - P_1) (1 - P_4) + P_3 P_4 (1 - P_1) (1 - P_2) - P_1 P_4 (1 - P_2) (1 - P_3) - P_1 P_3 (1 - P_2) (1 - P_4) - P_2 P_4 (1 - P_1) (1 - P_3) \\
& - P_1 (1 - P_2) (1 - P_3) (1 - P_4) - P_2 (1 - P_1) (1 - P_3) (1 - P_4) - P_3 (1 - P_1) (1 - P_2) (1 - P_4) - P_4 (1 - P_1) (1 - P_2) (1 - P_3) = 0,92.
\end{aligned}$$

Ushbu keltirib o‘tilgan apparat majmuaning bo‘laklari elementlarini xisoblash fo‘rmulalari asosida o‘zgarishlarni doimiy hisoblash uchun android operatsion tizimiga asoslangan mobil ilova ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan mobil ilova energiya taminoti manbalarini doimiy monitoringi uchun mo‘ljallangan markazlashgan dasturiy majmuaga integratsiya qilindi.

III BOB. INFOKOMMUNIKATSIYA OBYEKTALARINING ENERGIYA TA'MINOTI MANBALARINI MONITORING ALGORITMLARI VA DASTURIY MAJMUASI


3.1-§. Energiya ta'minoti manbalarining monitoringi kattalik va parametrlarini baxolashning IoT arxitekturasi

Energiya istemolchilarini uzluksiz elektr energiya bilan taminlashda xar xil turdag'i energiya ta'minoti manbalari va ularni doimiy nazoratini xamda boshqaruvini taminlovchi vositalarga bo'lgan talab juda yuqori bo'lmoqda. Uzluksiz elektr energiya bilan taminlash jarayonida bu ikkala turdan bir vaqtning o'zida foydalanilishi mumkin va bu jarayon istemolchining istemol quvvatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Elektr energiya ishlab chiqarish va uning sarfidan kelib chiqib jarayonlarni boshqarish bugungi kunda energetika soxasiga axborot texnologiyalari soxasining apparat va dasturiy vositalarining ya'ni IoT texnologiyasining to'liq kirib kelishi kerakligini talab qilmoqda. Energiya ta'minotini doimiy nazorat va boshqaruvi jarayonlarini turli sezish elementlari asosida qaror qabul qiladigan raqamli va intellektual mikrokontrollerlar yordamida amalga oshiriladi[55;56]. Energiya ta'minoti manbalarini monitoring qilishda IoT texnologiyasi o'z ichiga turli sezgir elementlar, sensorlar va ularni integratsiya jarayonlarini oladi. IoT texnologiyasi yordamida manbalarni faqatgina monitoring mintaqalarda joylashgan signal qabul vqilish va o'zgartirish apparatlari va sensorlardan kelayotgan malumotdar asosida energiya sarfi xamda istemolchilarning istemol quvvatlarini doimiy malumotlar bazasi yordamida baxolab boradi (3.1- rasm). U asosan uchta qismdan iborat: manbalar to'g'risida malumotlarni olish, qayta ishslash blokida o'zgartirish, masofadan monitoring tizimiga yetkazib berish va nazorat qilish bo'limi[57;58].



3.1-rasm. Energiya ta'minoti manbalarini monitoring qilishning IoT arxitekturasi.


Mikrokontroller (maxsus ishlab chiqilgan qurilma) sensor kirish signallarini uchta kirishdan oladi va ularni real vaqt rejimida GSM signal uzatish vositasi yordamida serverga uzatadi. Ma'lumotlar Sim800 moduli orqali uzatgandan keyin, internet tarmog'i orqali monitoring ilovasiga (ya'ni serverga) yuboriladi. IoT texnologiyasiga asoslangan holda energiya ta'minoti manbalarini monitoring qilish tizimi quyidagi vazifalarni bosqichma bosqish bajaradi.



3.2- rasm. IoT texnologiyasi asosidagi monitoring jarayonini bosqichlari.


Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalariga ko'ra, taklif qilingan majmuuning maqsadga muvofiqligi isbotlangan. Texnikaning invaziv bo'limgan xususiyati uni tadqiqot uchun ham, xar qanday sharoitda ham o'ziga jalb qiluvchi vositaga aylantiradi. Simsiz uzatish tizimi manbaning olingan malumotlarni saqlash va internet tarmog'i orqali monitoringa uzatishga imkon beradi. Energiya ta'minoti manbalaridan

olingan malumotlarni masofadan monitoring dasturiy majmuasiga yuborish jarayonini kompyuterda sinov dasturiy vositasi yordamida sozlash jarayoni ketma ketligi 3.3-rasmida keltirilgan[6; 298-301-b, 7; 274-276-b,8].



3.3-rasm. Majmuani ishga tushirish

Dastlab energiya manbalar va apparat o‘rtasida bog‘lanishlar amalga oshiriladi. Bog‘lanishlarni amalga oshirishda birinchi navbatda energiya manbalari bilan apparatdan chiqayotgan signallar miqdori va xolatini sezgir elementga yo‘naltirishga mo‘ljallangan kiruvchi simlar yordamida amalga oshiriladi. (3.4-rasm)



3.4-rasm. Apparatning tarmoqqa ulanishi

Xar bir sezgir element xulosasi asosida analog malumotlar apparat elementida raqamli ko‘rinishga aylantiriladi va axborotlarni qayta ishlash blokiga (mikrokontrollerga) yuboriladi. Mikrokontrollerga kiruvchi pinlar yordamida energiya manbasining turi aniqlanadi. Energiya manbalardan kelayotgan kuchlanish ko‘rinishidagi signallarni axborot malumot shaklida GSM moduli orqali masofadan monitoring jarayonlarini amalga oshiruvchi ilovaning URL adresiga yuboriladi. Malumotlar xar bir manbaning ishlab chiqqan elektr energiya miqdoridan kelib chiqib xar 5 minut ichida web saxifaga xabarlarni yuborib turadi. Apparat xar bir infokommunikatsiya obyektining uzluksiz elektr energiya istemol qiladigan antennalariga va qurilmalariga yaqin bo‘lgan joylariga o‘rnataladi. Xar bir qurilmaga bir xil URL adres beriladi, monitoring ilovasi keluvchi malumotlarni shifr matni asosida qaysi obyektdan kelayotganligini ajratib oladi. Mazkur monitoring apparatidan keluvchi malumotlar uchun dasturiy majmuada aloxida satrlar keltirib o‘tilgan.

```

Bod(bit/s) 115200 Port COM5
Bog'lanish Yangilash Yakunlash


Problem to initialize AT command, retry in 1 sec
Setup Complete!
Signal OK (strength: 24)
Network registration OK
GPRS config OK
v_led=5.17volt v_bat11.27volt Vd=5.99volt P=0.00Watt I=29.57amper
GPRS connected !
Start HTTP GET...
http://pwcontrol.uz/app/insertData.php?a=218&v=11.27&w=5.99&v2=1010&Vsh=11.2
HTTP GET successful (14 bytes)
Received : <br>1846886496
GPRS disconnected !
Module in low power mode
v_led=5.17volt v_bat11.27volt Vd=6.04volt P=0.00Watt I=29.57amper
v_led=5.17volt v_bat11.27volt Vd=5.82volt P=0.00Watt I=29.91amper
v_led=5.17volt v_bat11.27volt Vd=5.82volt P=0.00Watt I=29.47amper
v_led=5.17volt v_bat11.27volt Vd=5.79volt P=0.00Watt I=29.72amper

```

3.5-rasm. Apparatning monitoring ilovasiga malumotlarni yuborish jarayoni.

Apparat xamda dasturiy majmuada kechuvchi jarayonlar nazoratida apparat-dasturiy majmuuning har turli funksiyasini bajaruvchi modullari uchun mavjud bo‘lgan zamонавиј kutubxonalaridan foydalaniladi. Dasturiy majmua Javascript dasturlash muxitida ishlab chiqildi. Dasturiy majmuada kunning vaqtlarida energiya ta’minoti

manbalaridan kelayotgan axborotlarni xar 5 minutda aloxida saxifada xududlar kesimida aks ettiradi. Bundan tashqari manbalarning elektr energiya ishlab chiqarishi xamda o‘zgaruvchan va o‘zgarmas toklarni monitoring xolatini asoslovchi grafiklar shaklantirib beradi. Mazkur dasturiy majmuaga maxsus algoritm asosida shakllantirilgan. Internet brauzerlaridan pwcontrol.herokuapp.com manzili orqali murojatlarni amalga oshirish va manbalar xolatini doimiy monitoring qilish mumkin (3.6-rasm) [86;87;88].



3.6-rasm. Infokommunikatsiya obyektlarini energiya ta'minotini masofadan monitoringi dasturiy majmuasining ishlash algoritmi.

Tadqiqotlar asosi sifatida signal o‘zgartirish elementlari kattaliklari va parametrlarini xisoblash algoritmi doirasida kichik bir dasturiy vosita ishlab chiqilgan, keyinchalik pwcontrol.herokuapp.com tizimga bog‘lash maqsadida. Dasturiy vosita elektr o‘zgartkichlaridagi birlamchi toklarni kuchlanish ko‘rinishidagi signalga o‘zgartirish jarayonlarida ishtirok etuvchi kattalik va parametrlarni ratsional xisoblash asosida, chiqish

kuchlanishi 5 Voltdan kichik bo‘lgan signallarni tadqiq qilish va signal o‘zgartirish kattaliklari xamda parametrlarni xisoblash imkoniyatlariga ega. Dasturiy majmua energetika o‘lchov o‘zgartirish va axborot kommunikatsiya tizimlari energiya ta’minotini xisoblarini amalga oshirishda qo‘llashga mo‘ljallangan. Infokommunikatsiya obyektlari elektr qurilmalari va energiya ta’minoti tarmoqlaridan oqayotgan uch fazali toklarni statik o‘zgartirish jarayonini analitik ifodalarasi asosida signal o‘zgartkich apparatlarning kattalik va parametrlarini amaliy tadqiq etishga mo‘ljallangan.

$$I_{\mathcal{E}_{\text{чикии}}} = \Pi_{\mathcal{E}_1} U_{\mathcal{E}_{\text{курии}}} \quad (3.1)$$

$$F_\mu = I_{\mathcal{E}_{\text{курии}}} K_{\mathcal{E}\mu} \quad (3.2)$$

$$\Phi_\mu = \Pi_\mu F_\mu \quad (3.3)$$


$$U_{\mathcal{E}_{\text{чикии}}} = K_{\mu\mathcal{E}} \Phi_\mu \quad (3.4)$$

$$U_{\mathcal{E}_{\text{чикии1}}} = K_{\mu\mathcal{E}} \Pi_\mu K_{\mathcal{E}\mu} \Pi_{\mathcal{E}1} U_{\mathcal{E}_{\text{курии}}} \quad (3.5)$$


$$U_{\mathcal{E}_{\text{чикии2}}} = 4,44 fW_2 \Phi_\mu; \quad (3.6)$$

Yuqorida keltirilgan analitik ifodalar asosida ishlab chiqilgan mobil qurilmalar uchun mo‘ljallab yaratilgan qulay dasturiy ta’minotda, ushbu tadqiqot ishida energiya ta’minoti monitoringi amaliy jarayonlarida mavjud xisoblashlarni va natijalarni olishda keng foydalanilgan. Dasturiy vositaning mobil ilovasi shakllantirilgan bo‘lib, manbalar parametrlari kiritilganda bir vaqtning o‘zida sonlarda natijalar elon qilinadi. Mazkur xisoblash uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minot uchun intellektual mulk agentligidan asosli guvoxnomasi olingan. Dasturiy majmuasi maxsus formulalar asosida shakllantirilgan algoritm asosida ishlaydi (3.7-rasm) [81;82;83].


Dasturiy majmuada dastlabki xisoblarni amalga oshirish va ularning amaliy xamda nazariy qiymatlarini qanchalik mosligini aniqlash maqsadida mobil ilovasi ishlab chiqildi. Yuqorida shakllantirilgan analitik ifoda dasturiy majmuada algoritm asosida ketma ketlik bilan to‘liq kiritilgan. Ushbu ketma ketlik asosida qiymatlar kiritiladi va dastur natijaviy xulosalar son kesimida aks ettiriladi (3.8a.-rasm). pwcontrol.herokuapp.com tizimi interfeysi 3.8b. rasmida keltirilgan.



3.7-rasm. Manba parametrlarini xisoblash dasturiy majmuasi algoritmi.



3.8a.-rasm. Chiqish signali kattalik va parametrlarini ratsional xisoblashning dasturiy majmuasi ish oynasi



3.8b.- rasm. pwcontrol.herokuapp.com tizimi interfeysi

Dasturning funksional imkoniyati:


- signal o‘zgartkich apparat rejimlarini va signallarini xisoblash va ular asosida tadqiqotlar o‘tkazish;
- chiqish kuchlanishining grafigini shakllantirish;
- model asosida kuchlanish taqsimotini aniqlash.

3.2-§. Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta’minotini masofadan monitoringi apparat-dasturiy majmuasini funksional modullari va amaliy tadqiqi

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minoti qurilmalarini masofadan monitoring qilishda markazlashtirilgan elektr tarmog‘iga integratsiyalashda elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, saqlash va iste’mol rejimlarini muvofiqlashtirish uchun elektr parametrlari qiymatlarini monitoring qilish talab etiladi. Buning uchun iste’molchilarining taqsimlash qurilmalari shinalariga kerakli datchiklar o‘rnataladi va ularning chiqish signallari boshqaruv tizimiga beriladi. Mikrokontroller tarkibida turli xil signallarni qayta ishslash va elektr qurilmalaridan olingan malumotlarni signal uzatish qurilmasi yordamida uzoq masofalarda joylashgan boshqaruv obektlariga yani serverlarga yuborishga mo‘ljallangan kompleks qurilmalar mavjud. Yani yuqorida aytib o‘tilgan axborotlarni qayta ishslash blokidan keladigan malumotlarni monitoring uchun mo‘ljallangan ilovalarda namoyish etish uchun web ga asoslangan xamda maxsus manbalarni turiga ko‘ra uzlusiz nazorati uchun mo‘ljallangan amaliy apparat-dasturiy majmualarning funksional modullari ishlab chiqildi [6; 125-139, 12].


Apparat-dasturiy majmuaning funksional modullari asosan uchta satxdan tashkil topgan bo‘lib, manbalardan keladigan analog ko‘rinishdagi signallarni qabul qilish hamda qayta ishslash moduli. AQIB dan keladigan manbalar ish xolatini xududlar kesimida joylashgan infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minoti manbalari ishlab chiqargan energiya quvvati va sarfi xaqidagi malumotlarni doimiy

monitoring qilib boruvchi web interfeys xamda mobil ilovadan tashkil topgan. Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta'minotini doimiy monitoringi uchun mo'ljallangan apparat-dasturiy majmualarning o'zaro bog'langanligini asoslovchi funksional modullari shakllantirildi (3.9-rasm) [80;85;86].



3.9-rasm. Energiya ta'minoti manbalari monitoringi apparat-dasturiy majmuasining funksional modullari.

Ushbu ishida apparat vositadan kelayotgan malumotlarni masofadan monitoring va boshqarish uchun mo'ljallagan pwcontrol.herokuapp.com dasturiy majmuasi yaratilgan dasturiy majmua asosan gibridda energiya ta'minoti jarayonlarini doimiy monitoring jarayonlarini amalga oshirishga mo'ljallangan.



3.10-rasm. Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti monitoringi apparat-dasturiy majmuasining funksional tuzilmasi.

Ushbu chizmada har bir nuqtada o'rnatilgan qurilmaning sezgir elementlari malumotlari asosida kuchlanish va tok kuchi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi va ular asosida infokommunikatsiya obyekti energiya ta'minotining gibridda energiya manbalari uchun quvvat balansi tenglamasi joriy holatda quyidagi ko'rinishda shakllantiriladi:

$$P_{MET}(t) + P_{KEC}(t) + P_{ШЭС}(t) + P_{ДГ}(t) + P_{AB}(t) = P_{IO}(t) \quad (3.7)$$

bu yerda $P_{MET}(t)$ - markazlashtirilgan energiya tizimi ishlab chiqaradigan joriy quvvat qiymati; $P_{QET}(t)$ - quyosh energiyasi manbalari asosidagi energiya tizimlari ishlab chiqaradigan joriy quvvat qiymati; $P_{ShET}(t)$ - shamol energiyasi manbalari asosidagi energiya tizimlari ishlab chiqaradigan joriy quvvat qiymati; $P_{DG}(t)$ - dizel generatorlar asosidagi energiya tizimlari ishlab chiqaradigan joriy quvvat qiymati; $P_{AB}(t)$ -

elektr energiyasi to‘plagichlari zaryadining (razryadining) joriy quvvat qiymati; $P_{yu}(t)$ - yuklamaning joriy quvvat qiymati [5; 50-54-b, 61].

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minoti har bir manbalari joriy quvvat qiymatlari quyidagi asosiy elektr parametrlar orqali shakllantiriladi:

$$P_k(t) = u_k(t) \cdot i_k(t) \quad (3.8)$$

bu yerda $u_k(t)$ - infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minoti taqsimlash qurilmasi shinasidagi oniy kuchlanish;

$i_k(t)$ - yuklama tokining oniy qiymati.

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta’minoti tizimi uchun quvvat balansi tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$u_k(t) \cdot i_k^{M\Theta T} + u_k(t) \cdot i_k^{K\Theta T} + u_k(t) \cdot i_k^{III\Theta T} + u_k(t) \cdot i_k^{\Delta T} \pm u_k(t) \cdot i_k^{AB} = u_k(t) \cdot i_k^{IO} \quad (3.9)$$

Yuqoridagi ifoda orqali infokommunikatsiya obyektlari gibrif energiya ta’minoti manbalari shinalaridagi signal apparati yordamida tokni va energiya ta’minoti quvvati sarfini nazorat qilish hamda boshqarish mumkin. Boshqarish masalasi mikroprotsessorli boshqaruv texnologiyalar (MKBB Arduino) asosida amalga oshiriladi [4].

Energiya ta’minoti manbalarini masofadan monitoring qilish uchun mo‘ljallangan apparat-dasturiy majmuada bulutli xisoblash texnologiyalari maxsus xizmat turlaridan foydalanilgan, u alohida ajratilgan va taqsimlangan konfiguratsiyalangan apparat va tarmoq resurslaridan, dasturiy ta’minotdan tashkil topadi va ularning masofadagi provayderlarining ma'lumotlar markazida joylashgan. Bulutli dasturiy majmua xizmat turlaridan (SaaS) yani mijoz platformasida ishlaydigan maxsus dasturdan foydalanish xizmatlaridan foydalanilgan. Bunda o‘zaro aloqa internetga kirish imkonи mavjud bo‘lgan xar qanday qurilmadan manbalarni monitoring qilish imkonи mavjud bo‘ladi. Energiya manbalari mavjud bo‘lgan xar bir infokommunikatsiya stansiyasiga ishlab chiqilgan maxsus monitoring uchun mo‘ljallangan apparat vosita o‘rnataladi. Apparat vosita to‘g‘ridan to‘g‘ri cloud computing xizmatlari asosida monitoring uchun mo‘ljallangan jarayonlarni amalga oshiradi. Mavjud bo‘lgan provayder bulutli tuzilmani (malumotlarni saqlash, tarmoqlardagi munosabatlar, operatsion tizimlar, serverlar va boshqa jixatlari) boshqarish va boshqarish xuquqini o‘zida saqlab qolgan. Mavjud bo‘lgan ilova va uning parametrlari xamda funksiyalariga o‘zgartirishlar kiritish mumkin. Bulutli xisoblash tizimi xizmatlari mijozlar uchun ilovalarni yaratish xamda takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Infokommunikatsiya obyektlarining energiya ta'minotini monitoring qilish va uzluksizligini taminlashda raqamli texnologiyalar jumladan IoT texnologiyalarini joriy etishni yuqori saviyali innovatsion yechim deb qarash mumkin. Xar bir qurilmalardan keluvchi malumotlar internetda mavjud bulut texnologiyalari xizmatlari asosida shakllantirilgan yani bunga misol tariqasida RESTful API xizmatini aytishimiz mumkin. Energiya ta'minoti qurilmalarining jarayonlarini monitoringi va boshqaruvida taqdim etilayotgan pwcontrol.uz tizimi markazlashgan xolda energiya ta'minoti stansiyalarini monitoringi va boshqaruvi uchun mo'ljallangan. Dasturiy majmuada asosan energiya ta'minoti monitoringi va boshqaruvi qurilmasidan kelayotgan kuchlanish ko'rinishidagi signal va qurilmaning ish xolati xaqidagi malumotlar grafik va raqamli ko'rinishda tizimning xar bir stansiya uchun mo'ljallangan saxifasida ko'rindi. Foydalanuvchi ushbu malumotlar asosida doimiy monitoring jarayonlarini amalga oshiradi va boshqaradi. Energiya istemoli obektining talabidan kelib chiqib xar bir manbaning ishslash vaqtiga belgilanadi. Bundan tashqari energiya ta'minoti nazorati va boshqaruvida hisoblash va infokommunikatsiya majmualari energiya ta'minoti manbalarni ishlatish jarayonlarida oldindan bashorat qilish va shu asosida qarorlar qabul qilishda online ob-xavoni malumotlarini ko'rsatuvchi tizimli dasturga qurilmaga keluvchi signal ko'rinishidagi malumotlar integratsiya qilish imkoniyatlari xam mavjud. Bundan asosiy kutilgan natija shundan iboratki energiya ta'minotida energiya sarfini maksimal darajada kamaytirish va xisoblash va infokommunikatsiya majmualarini uzluksiz elektr energiya bilan taminlashdir.

Pwcontrol.Herokuapp.Com tizimi orqali elektr taminot manbalarining joriy ish xolatini masofadan monitoring qilish va boshqarish, parametrlarining ishslash xolatlarini masofadan doimiy kuzatib borish va natijalarni grafik ko'rinishida namoyon qilish imkoniyati mavjud. "Qayta tiklanuvchan va an'anaviy elektr energiya manbalarnini monitoringi va boshqaruvining signallarini IoT texnologiyasi asosida optimallashtirish dasturiy ta'minoti" nomli dasturiy vosita reaktiv quvvat manbalarini boshqariluvchi quvvatlarini tanlash va doimiy ravishda masofadan monitoringi qilishni ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'lib uning funksional imkoniyati quyidagilar bilan izohlanadi:

- energiya manbalarini miqdorini aniqlash va joriy etish xarajatlarini qoplash muddatini kamaytirishni e'tiborga olish, reaktiv quvvat manbalari o'rnatilmagan holatda transformator va kabeldagi qo'shimcha

isroflarni aniqlash, bir yillik elektr energiya iqtisodini hisoblash va boshqaruv tadqiqotlari jarayonida o‘zgartiriluvchi reaktiv quvvat miqdorlarini aniqlash;

- ETTda reaktiv quvvat manbalarini joriy etishda xarajatlarini qoplash muddatini kamaytirishda boshqaruv kattalik va parametrlarini o‘zgartirilishini tadkiq eta olishga mo‘ljallangan [6; 7; 298-302-b].


3.3-§. Masofadan monitoring tizimining ma’lumotlar bazasi modeli

Raqamli qayta ishlash apparat-dasturiy majmuasi yordamida dastur malumotlar bazasida ko‘rsatilgan vaqtida malumotlar kelishi taminlanadi. Xar bir energiya manbasining kunlik elektr energiya ishlab chiqarishi va energiya sarfiga qarab malum vaqt davomida ko‘proq ishlagan iste’molchi va uning energiya sarfi bo‘yicha statistik malumotlarni malumotlar bazasiga to‘gridan to‘gri yoziladi. Statistik malumotlar asosida tizim qaror qabul qilish jarayonini avtomatik amalga oshirishi mumkin, yani bunda asosan sezish elementlari va qurilmaning asosiy parametrlaridan kelayotgan kunlik malumotlar yordamida shakllantiriladi.

Mazkur tizimda ma’lumotlar bazasini boshqarish uchun uni tashkil etishda samarali dasturiy vosita ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimidan foydalanildi. Ma’lumotlar bazasi kaytarilmaydigan ma’lumotlarning jamlanmasidan tashkil topdi. Uning asosida energiya ta’minoti tizimni nazorati va monitoringida ko‘plab muammoli masalalar xal etildi. Tashkil etilgan malumotlar bazasida axborotlarning mantiqiy modellari aks ettirildi. Yani energiya monitoringi va boshqaruvida mantiqiy o‘zaro bog‘liklikni modelining namunasi aks ettirildi (3.11-rasm). Boshqaruvda axborot tizimi qarorlari tezkor zaruriy va kerakli malumotlarni olish va ularni doimiy qayta ishlash tashkil qilindi. Xar bir stansiya energiya ta’minoti xolatini tranzaksiya qilish va kerakli malumotlarni tizim masuli tomonidan ixtiyoriy xududda mobil qurilmalar orqali monitoring qilish va boshqarish tizimining dasturiy vositasi ishlab chiqildi [4; 6; 7;39;73;74].

Mazkur malumotlar bazasi Mysql so‘rovlar tilida shakllantirilgan bo‘lib yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asosiy jadvallardan va jadval maydonlarilan iborat. Buni tashkil etishdan asosiy maqsad energiya ta’minoti qurilmalaridan kelayotgan parametlar va qurilmalarning elektr energiya ishlab chiqarishi xolati xaqida doyimiy malumotlarni to‘plash

va malum davrda to‘plangan malumotlar asosida qaror qabul qilish tizimini xam joriy etishdir. Bundan tashqari foydalanuvchi uchun qurilmalar ish xolati xaqida va energiya isrofi xaqida doimiy statistik malumotlarni to‘plashni taminlab beradi. Modelni qurishda “aloqa” mavjud obyektni, jarayonni yoki hodisani, abstraksiyasi sifatida keladi. Atribut manba turidan kelib chiqib, maxsus nom bilan belgilandi, qiymatlar to‘plamidan mumkin bo‘lgan qiymatlar qabul qilinadi. “Mohiyat – aloqa” modelidagi bog‘lanishlarga, ikki mohiyat o‘rtasidagi har bir bog‘lanish turiga tegishli munosabatlar kiritildi. Loyiha haqidagi axborot diagramma ko‘rinishida rasmiylashtirildi, buning uchun quyidagi belgilar kiritiladi: mohiyat turlari – to‘rtburchak bilan tasvirlandi va ular mos mohiyatlar bilan yo‘nalishsiz qirralar bilan bog‘lanadi. Malumotlar bazasini loyixalashda yanada ishonchlilikni va malumotlar aniqliligi oshirish maqsadida moxiyat aloqa diagrammasi ishlab chiqildi (3.11-rasm).




3.11-rasm. Energiya manbalari monitoringi tizimi ma’lumotlar ba’zasing moxiyat aloqa modeli

“Mohiyat – aloqa” modeli predmet sohani tashkil etuvchi uchta assosi komponentalardan foydalanim quriladi: mohiyat, atribut, aloqa. Konstruktiv elementlar tarkibida “VAQT” tashkil etuvchisi faqat oshkormas holda ishtiroy etgan. Modelda vaqt, yil, sana va shunga o‘xshash atributlar bilan tasvirlandi. “Mohiyat – aloqa” modelida energiya ta’minti tizimlari xolatining faqat aniq bir qismini akslantirildi. Energiya ta’minti manbalari va ularning ish xolati xaqida to‘la axborotga ega bo‘lish uchun uni etarli kengroq tekshirish va

oldingisini to‘ldiradigan lokal modellar qurildi. Shundan so‘ng lokal modellar

birlashtirilib energiya ta’minoti manbalari haqida bir butun kompozison tasvirga xosil qilindi [4; 132-133-b].

IDEF1x funksional modellashtirish uslubi asosida energiya ta’minoti manbalari monitoringi uchun tuzilgan tahlili metodologiyasi qurildi. Ushbu uslub murakkab energiya ta’minoti bosharuvida, uskunalarini, dasturiy majmuani loyihalashda keng qo‘llanildi.(3.12-rasm)



3.12-rasm. Energiya ta’minoti monitoringi IDEF1x modeli.

IDEF1x modeli asosida energiya ta’minoti manbalari ish o‘rinlari orasidagi mantiqiy munosabatlar va ketma ketliklar keltirib o‘tildi. IDEF1x energiya ta’minotida xar bir mo‘dullarni to‘plam sifatida ifodalab ko‘rsatildi. Yani eng muhim funksiyasi yuqori chap burchakda, qo‘srimcha ravishda qoidalari kirish o‘qi har doim faoliyatning chap chetiga keladi.


IV BOB. INFOKOMMUNIKATSIYA OBYEKTALARINING ENERGIYA TA'MINOTINI MASOFADAN MONITORING APPARAT-DASTURIY MAJMUALARI TADBIQI

4.1-§. Energiya ta'minoti qurilmalarining masofadan monitoringi apparat va dasturiy majmualari integratsiyasi

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti tizimlari monitoringida yaratilgan apparat bilan dasturiy majmua o'zaro bir biri bilan bog'liq xolda xizmat ko'rsatadi. Tarmoq infratuzilmasi, bu o'z navbatida bir-biri bilan birlashtirilgan kichik kichik tizimlardan iborat. Energiya ta'minoti qurilmalari, infokommunikatsiya uskunalarini, server uskunalarini, ish stansiyalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, "tizim integratsiyasi" tushunchasining mohiyati, prinsipial jihatdan, atamaning o'zi - tizimlarning birlanishi, yani alohida tarkibiy qismlarning bir biri bilan uzviiy bog'liqligidir.

Yagona tizimda paydo bo'ladigan xususiyatlarni berish uchun ushbu tarkibiy qismlarni bir-biriga bog'lash - tizimlarning har birida alohida mavjud bo'lмаган quyi tizimlardan birgalikda foydalanish natijasida olingan qo'shimcha afzalliklardir. Vujudga kelishning eng oddiy misoli - bu operatsion va energiya ta'minoti monitoringida axborot tizimlari o'rtaSIDagi malumot almashinuvni tufayli energiya ta'minoti qurilmalari xaqida qiyoslash natijasida boshqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Energiya ta'minoti monitoringida biz ishlab chiqqan masofadan boshqarishga mo'ljallangan dasturiy majmua va apparat vositalarni o'zaro integratsiya qilishda quyidagi asosiy vazifalar yechildi[4; 125-139-b]:

- tarmoqlarni tizim mamuriyati va uskunalarini texnik qo'llab-quvvatlash;
- uskunalarga xizmat ko'rsatish va favqulotda tamirlash;
- uskuna o'rnatish, operatsion tizimlar va dasturlarini o'rnatish xamda sozlash, ishga tushirish;
- hisobotlarni taqdim etish bilan ishslashni nazorat qilish;
- texnik va foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash, maslahat berish;
- autsorser masofadan turib ishslash imkoniyati.



4.1.-rasm. Energiya ta'minoti xolatini masofadan monitoring qilishda qurilma va pwcontrol.herokuapp.com tizimi o'rtasidagi integratsiya jarayoni.

Integratsiyada asosan Arduino mikrokontrolleri sezish elementlari asosida xar bir energiya ta'minoti qurilmalari xaqidagi malumotlarni o'qib oladi va yuqoridagi rasmda keltirilgan ko'rinishda raqamlarga o'girib signal uzatish vositasi GSMsim800 markali modul asosida serverga yuboradi. Energiya ta'minoti qurilmalari xaqidagi malumotlarni shifrlab 16 lik sanoq tizimida raqamli ko'rinishda yuboradi va qabul qiladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak xar bir qurilmani tanib olish ketligi shabloni doimiy qilib belgilangan va ushbu shablon asosida xabar yuborilganda mavjud bo'lgan energiya ta'minoti manbasini ishga tushirish va manbalarning ayni vaqtidagi parametrlari xaqida malumot yuboriladi, teskari xabar borganda esa manbani o'chirish va manba xaqidagi malumotni serverga yuborish buyrug'i bajariladi [6; 298-302-b, 7; 274-276-b].

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti qurilmalarini masofadan monitoring jarayonlarini amalga oshiruvchi dasturiy majmuuning asosiy tashkil etuvchi modullari quyidagilar:

- Qurilmalarni boshqarish moduli;
- Energiya ta'minoti parametrlari va xarakteristikalarini moduli;
- Real vaqtida monitoring qilish moduli;
- Parametrlarni xisoblash va qaror qabul qilish moduli;

- Gibrild energiya ta'minotini boshqarish moduli;
- Dastur uchun qo'yladigan funksional talablarni o'z ichiga oladi;
- Operatsion tizim windows server yoki linux server uchun mo'ljallangan ixtiyoriy distribyutlardan biri;
- Malumotlar bazasini boshqarish tizimi uchun PostgreSQL 9.5 yoki undan yuqori versiyalari Web server apache yoki ngix;
- Server internet tarmog'iga ulangan bo'lishi va kamida internet tezligi 100Gb yoki bo'lishi talab qilinadi.

Dastur orqali qurilmani masofadan boshqarish buyruqlarini uzilmasi va ulurning xususiyatlari. Ushbu tizim klient server arxitekturasiga mo'ljallangan web texnologiyalar yordamida ishlab chiqilgan. Serverda barcha malumotlar va buyruqlar amalga oshiriladi, yani barcha jarayonlar serverdag'i ilova dastur orqali amalga oshiriladi. Bunda foydalanuvchi xoxlagan nuqtadan web browser orqali tizimga kiradi va qurilmalarni boshqarishi mumkin. Bunda albatta foydalanuvchi uchun maxsus akkaunt kerak bo'ladi. Shundan keyin quyidagi buyruqlarni tizimga kiritish orqali masofadan qurilmalar boshqariladi:

4.1-jadval.

Monitoring dasturining asosiy buyruqlari.

Nº	Buyruq nomi	Bajariladigan vazifa
1.	insertParams()	Energiya manbalari parametrlarini kiritish
2.	configureParams()	Manbalarning parametrlarini sozlash
3.	changeParams()	Manbalarning parametrlarini o'zgartirish
4.	etBegin()	Tizimni ishga tushirish buyrug'i
5.	quyoshPanelStart()	Quyosh energiya modulini ishga tushirish
6.	quyoshPanelStop()	Quyosh energiyasi modulini to'xtatish
7.	startWind()	Shamol energiyasi modulini ishga tushirish
8.	stopWind()	Shamol energiyasidan modulini to'xtatish
9.	startDizel()	Dizel generatori modulini ishga tushirish
10.	stopDizel()	Dizel generatori modulini to'xtatish
11.	startAkkum()	Akkumulator modulini ishga tushirish
12.	stopAkkum()	Akkumulator modulini to'xtatish
13.	startCenteredEnergy()	Markazlashgan energiya modulini ishga tushirish
14.	stopCenteredEnergy()	Markazlashgan energiya modulini to'xtatish
15.	getReport()	Hisobotlarni olish

Dastur va qurilma maxsus APIlar yordamida integratsiya qilingan. Buyruqlar maxsus kodlar orqali qurilmaga yuboriladi va qurilmalar natijasi xolat (status) ko‘rinishida qaytariladi. Xar bir API tizimidagi boshqarish buyruqlariga ulangan xisoblanadi. RESTful API xizmatidan foydalanilgan bo‘lib, ushbu API yordamida backend va frontend o‘rtasida maulmot integratsiya qilinadi. Barcha API lar https protokoli asosida ishlaydi. API larda malumotlar JSON formatida almashiniladi, yani backend dan yuborilgan malumot JSON ga konvertatsiya qilinadi. Natijada malumotlar frontend ga borgach Javascript object ga konvertatsiya qilinadi. Bundan so‘ng malumotlar foydalanuvchiga taqdim etiladi. Tizimga kirishdan tashqari /api/login dan tashqari barcha API lar token bilan malumot almashiniladi. Token sifatida JSON-web-token dan foydalanilgan. Ushbu tokendan maqsad faqatgina tizimga kirgan foydalanuvchilargina API lar yordamida malumotlarni olishidir. Web serverni qurilma va frontend bilan integratsiyalari:

- <https://pwcontrol.herokuapp.com/api/users/login>-tizimga kirish;

So‘rov uslubi POST.

So‘rov tanasi:

```
{  
    "userName": "akmal",  
    "password": "a456aua"  
}
```

so‘rov javobi:

```
{  
    "_id": "62487c5cbe5db11a996aa507",  
    "fullName": "Akmal Abdumalikov",  
    "userName": "akmal",  
    "token":  
}
```

```
"eyJhbGciOiJIUzI1NiIsInR5cCI6IkpXVCJ9.eyJfaWQiOiI2MjQ4N2M1Y  
2JlNWRiMTFhOTk2YWE1MDciLCJmdWxsTmFtZSI6IkFrhWFsIEFiZH  
VtYWxpa292IiwidXNlck5hbWUiOiJha21hbCIsImlhCI6MTY1MDA5Mz  
YwOCwiZXhwIjoxNjUwMTgwMDA4fQ.sJIALbwkQ1iTuyCXXGeZb0Sw  
wan4x0-GKapY8OUsRUw"
```

```
}
```

Bundan keyingi barcha API lar so‘rovining header qismida token bo‘ladi.

- <https://pwcontrol.herokuapp.com/api/regions/all-barcha>

viloyatlarni olish;

So‘rov uslubi GET.

So‘rov tanasi bo‘sh (GET so‘rovda tana mavjud bo‘lmaydi).

So‘rov javobi:

```
[ {
    "_id": "6248846ef89cb641264b64f5",
    "title": "Andijon viloyati",
    "__v": 0
},
{
    "_id": "62488563f89cb641264b64fb",
    "title": "Jizzax viloyati",
    "__v": 0
},
{
    "_id": "624885d2f89cb641264b64fd",
    "title": "Namangan viloyati",
    "__v": 0
},
{
    "_id": "6248865df89cb641264b650f",
    "title": "Xorazm viloyati",
    "__v": 0
}
]
```

•<https://pwcontrol.herokuapp.com/api/station/byregion/:stansiyalId-malum> bir viloyatga tegishli stansiyalarini olish;

So‘rov uslubi GET.

So‘rov parametri stansiyalId.

So‘rov javobi:

```
[
{
    "_id": "6248882467defe68366d2d83",
    "title": "\"O'zbektelekom\" AK Jizzax filiali energiya ta'minoti stansiyasi",
    "regionId": "62488563f89cb641264b64fb",
    "createdAt": "2022-04-02T17:30:12.753Z",
    "updatedAt": "2022-04-02T17:30:12.753Z",
    "__v": 0
},
{
    "_id": "62488d2d51778faaf3c9df1d",
    "title": "\"UMS\" MCHJ energiya ta'minoti stansiyasi",
}
```

```
"regionId": "62488563f89cb641264b64fb",
"createdAt": "2022-04-02T17:51:41.439Z",
"updatedAt": "2022-04-02T17:51:41.439Z",
"_v": 0
}]
```

- <https://pwcontrol.herokuapp.com/api/results/byuniversity?user=userId&station=stationId>- malum bir stansiya va foydalanuvchiga tegishli bo‘lgan barcha qurilmalarning kuchlanishlarini olish;

So‘rov uslubi GET.

So‘rov parametri stansiyId, userID.

So‘rov javobi:

```
[
  {
    "_id": "625a6dfdb2cd48030c170627",
    "volt1": 0,
    "volt2": 0,
    "volt3": 0,
    "volt4": 0,
    "deviceId": "62488f1c42835f1fee67421e",
    "deviceName": "Markazlashgan Elektr ta'minot manbalari",
    "createdAt": "2022-04-16 12:19:25",
    "_v": 0
  },
  {
    "_id": "625a6defb2cd48030c170624",
    "volt1": 0,
    "volt2": 0,
    "volt3": 0,
    "volt4": 0,
    "deviceId": "62488f1c42835f1fee67421e",
    "deviceName": "Markazlashgan Elektr ta'minot manbalari",
    "createdAt": "2022-04-16 12:19:11",
    "_v": 0
  },
  ...
}
```

Axborotlarni qayta ishslash blokidan backend ga keladigan malumotlar:

- <https://pwcontrol.herokuapp.com/api/results/?a=5&v=2&w=3&v2=4>

So‘rov uslubi POST.

So‘rov tanasi:

{

"secret_key": "casuiv415154645dfgd541456115435435154*-/-.
8*435t"

}

Ushbu so‘rov natijasida axborotlarni qayta ishslash blokidan malumotlar bazasiga malumotlar yozib olinadi.

4.2-§. Energiya ta’mnoti obyektlarini masofadan monitoringi apparat-dasturiy majmuasini amaliy tadqiqi

Ayni paytda O‘zbekistonda energiya sarfini kamaytirish xamda qayta tiklanadigan energiya ta’mnoti manbalaridan keng foydalanish bo‘yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari so‘nggi yillarda shamol va quyosh energiyasi garchi namunaviy xususiyatga ega bo‘lsada, ulardan foydalanish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirildi. Telekommunikatsiya obektlarini uzlucksiz elektr energiya bilan taminlash va energiya taminoti manbalarini avtomatlashtirilgan apparat-dasturiy majmular yordamida doimiy monitoring qilib turish ustida ko‘plab tajriba sinovlari olib borilmoqda [93; 159-160-b, 95; 88-89-b, 98; 163-165-b].

Shu bilan birga, Respublikada hozirgi paytda qayta tiklanadigan energetikaning quyidagi texnologiyalaridan yanada kengroq foydalanish uchun imkoniyat hamda undaydigan sabablar bor:

- suv isitishga mo‘ljallangan quyosh panellari;
- elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun quyosh fotoelektr tizimlari;
- elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun mikrogidroelektr stansiyalar;
- elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun shamol generatorlari;
- elektr energiyasi va issiqlik ishlab chiqarish uchun biogaz qurilmalari.

Kelajakda boshqa texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqilishi lozim, ya’ni:

- chiqindi yoqadigan yirik moslamalar va masalan, Toshkent yoki Samarqand kabi yirik shaharlarda markazlashtirilgan issiqlik ta’mnoti tizimida maishiy chiqindilardan foydalanish;
- quyosh elektr stansiyalaridan foydalanish;
- geotermal energiyadan foydalanish.

Qayta tiklanadigan energiya oqimining zichligi ma'lum darajada yil mavsumi, kunlar va iqlim sharoitlariga bog'liqligi tufayli ushbu energetika texnologiyalaridan foydalanishda ularni kafolatlangan energiya manbai sifatida ko'rib chiqmaslik lozimligini esdan chiqarmaslik kerak. Masalan, fotoelektr stansiyalar kechasi ishlay olmaydi, shamol qurilmalari shamol esmasa yoki uning tezligi past bo'lsa, elektr energiya ishlab chiqarmaydi va hokazo. Shu sababli ular, odatda zaxira energiya manbaini talab qiladi va asosan an'anaviy energiya manbalarini to'ldiruvchi hisoblanadi [75].

Yuqorida qayd etilganidek, quyosh energiyasining texnik salohiyati O'zbekistonda qazilma yoqilg'ilarni yillik ishlab chiqarishdan ancha oshadi va quyosh suv isitgichlar hamda fotoelektr tizimlaridan foydalanish borasida resurslar bo'yicha hech qanday cheklolvar yo'q.

Bunday tizimlarning qiymati va aholining ko'rsatilayotgan xizmatlar bo'yicha to'lov layoqati bu boradagi eng jiddiy to'siqlar hisoblanadi.

Zamonaviy quyosh suv isitgich tizimlari quyidagi joylarda qo'llanishi mumkin:

- gaz bilan ta'minlangan tumanlarda tabiiy gazning bir qismini tejash maqsadida. Buning sabablari: gaz bilan ishonchli ta'minlashni oshirish (gaz yetishmasligi yoki boshqa texnik sabablarga ko'ra gaz ta'minotida doimiy uzhishlar bo'lib turadigan tumanlarda), atrof-muhit masalasi, iqtisodiy masalalarni hal etish;

- gaz bilan ta'minlanmagan olis tumanlarda xususan yog'och yoqilg'isi o'mida ishlatish uchun. Buning sabablari: energiya bilan bekamu ko'st va ishonchli ta'minlash darajasini oshirish;


- yirik markazlashtirilgan qozonxona issiqlik ta'minotida. Buning sabablari: tabiiy gazni tejash, bug'xona gazlari chiqindilarini kamaytirish.

Quyosh suv isitgich tizimlaridan foydalanishning ushbu yo'nalishini rivojlantirish borasidagi qo'shimcha imkoniyatlar Respublikada sifati jihatidan xorijda ishlab chiqarilgan ana shunday moslamalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani bilan bog'liq.

Tajriba tadqiqotlari Jizzax politexnika instituti Elektroenergetika kafedrasining uzluksiz energiya bilan ta'minlash laboratoriyasining quyosh energiya ta'minoti manbalari asosida amalga oshirilgan bo'lib, energiya manbalarining umumiyligi quvvati 10 kVt ni tashkil etadi.

Signal o‘zgartirishda birlamchi toklarini signalga o‘zgartirish jarayonini monitoringi va boshqarishning asosiy vositasi sifatida birlamchi signal o‘zgartirish qurilmalari qaraladi [60; 73; 74].

Energiya ta’minoti boshqaruvi qurilmalarining jarayonlarini toklari monitoringii qurilmasining tuzilishi 4.2 rasmida keltirilgan. Qurilmada hisoblash va infokommunikatsiya majmualari energiya ta’minoti jarayonlarini maosfadan monitoring qilishda xar bir manba uchun aloxida ularish vositasi biriktirilgan. Manba xolatini nazorat qilish va boshqarishda dasturiy majmuadan kelyotgan buyruqlarni qayta ishslash va kerakli enegrgiya ta’minoti manbalarini ulab uzish jarayonlarini amalga oshiradi.



4.2–rasm. Elektr ta’minot tizimida monitoringi va boshqaruv qurilmasining tuzilmasi.

Elektr energiya manbalarini mikroprotsessori avtomatik boshqarish blokida o‘rnatilgan mikroprotsessor va mikro-EHMLarning qo‘llanishi elektr tarmoqlar, elektrotexnik va elektr energetik qurilmalarining shikastlanishidan zararni kamaytirish va ishlab chiqariladigan energiyaning sifatini oshirish uchun xizmat qiladi [60; 63; 71; 47-50-b].

Tadqiqot ishida bu borada quyidagi tadqiqot algoritmlari va dasturiy ta’minotlari yaratildi hamda amaliyatga joriy etildi:

- O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan yangilik sifatida ro‘yxatdan o‘tgan DGU 07687 sonli “Elektrenergiya ta’minoti tizimlarida reaktiv quvvat iste’moli ko‘rsatkichlarini hisoblash dasturiy ta’minoti” nomli dasturiy vosita olingan (DGU 07687 20191572 guvohnomasi Ilova 1.8 da ko‘rsatilgan).

- O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan yangilik sifatida ro‘yxatdan o‘tgan DGU 08803 sonli “Ko‘p o‘lchovli monitoringi va boshqaruv signallarining o‘zgartirish jarayonlarini

tadqiqoti uchun dasturiy ta'minot" nomli dasturiy vosita olingan (DGU № 08803 20201168 guvohnomasi Ilova 1.9 da ko'rsatilgan).

- O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan yangilik sifatida ro'yxatdan o'tgan DGU 08003 sonli "Energiya samaradorlikni monitoringi va boshqaruvi elementlarini ishonchlilik va ish xolatlarining ko'rsatkichlarini tadqiq etish dasturiy ta'minoti" nomli dasturiy vosita olingan (DGU № 08003 20201168 guvohnomasi Ilova 1.10 da ko'rsatilgan).

- O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan yangilik sifatida ro'yxatdan o'tgan DGU 07874 sonli "Energiya samaradorligini monitoringi va boshqarishning avtomatlashtirilgan dasturiy-axborot ta'minoti" nomli dasturiy vosita olingan (DGU № 07874 20200221 guvohnomasi Ilova 1.11 da ko'rsatilgan).

- O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan yangilik sifatida ro'yxatdan o'tgan DGU 07860 sonli "Tokni o'zgartirish uchun mo'ljallangan qurilmalarda energiya va signallarning o'zgarish jarayonlarini tadqiq etish uchun dasturiy ta'minoti" nomli dasturiy vosita olingan (DGU № 07860 20191254 guvohnomasi Ilova 1.12 da ko'rsatilgan).

- O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan yangilik sifatida ro'yxatdan o'tgan DGU 07500 sonli "Tarqalgan parametrli uch fazali uchta sezish elementli o'zgartgichlarning dinamik tavsiflarini tadqiqoti dasturiy ta'minoti" nomli dasturiy vosita olingan (DGU № 07500 20191633 guvohnomasi Ilova 1.13 da ko'rsatilgan).

- O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan yangilik sifatida ro'yxatdan o'tgan DGU 07373 sonli "Tarqalgan parametrli uch fazali uchta sezish elementli o'zgartgichlarning statik tavsiflarini tadqiqoti dasturiy ta'minoti" nomli dasturiy vosita olingan (DGU № 07373 20191450 guvohnomasi Ilova 1.14 da ko'rsatilgan).

Ushbu dissertatsiya ishida ko'p parametrli toklari monitoringi va boshqaruvi qurilmalarining tadqiqi uchun foydalanilgan Cloud Computing texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan pwcontrol.uz masofadan monitoringi jarayonlarini amalga oshirishga mo'ljallangan tizim yaratilgan. Infokommunikatsiya ob'eklari elektr ta'minoti tizimida reaktiv quvvat manbalarini joriy etish xarajatlarini qoplash va doimiy ravishda nazorat va boshqaruvini amalga oshirishga mo'ljallangan algoritm va dasturiy majmular bo'yicha asosiy ma'lumotlar shundan iboratki, dasturiy majmular android va windows operatsion tizim


uchun mo‘ljallangan, dasturlash tili JAVA, C++ dasturlash tilida ishlab chiqilgan [86;87].

Dasturiy vositalar kichik xajmli va o‘rnatishga qulay, foydalanuvchi uchun o‘rganish o‘rganish oson. Xar bir dasturiy majmualar uchun olingan guvoxnomalar amaliyotda qo‘llanilganligi bilan alovida axamiyatga yegadir.

Hisoblash va infokommunikatsiya majmualari uzluksiz energiya bilan ta’minlashda quyosh energiya ta’minoti, shamol energiyasi, dizel generatori, akkumulator batareyasi hamda zarur bo‘lganda markazlashgan energiya ta’minoti yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, stansiyaning tashqa va ichki ko‘rinishlari 4.3 va 4.4-rasmlarda keltirilgan [60; 72; 73; 74; 75].



4.3-rasm. Energiya ta’minoti boshqaruvi qurilmalarining energiya taminlash manbalarini tashqi ko‘rinishlari.




4.4-rasm. Tadqiqotlar o‘tkazilgan tajriba qurilmalarining ishlab turgan xolatidagi ko‘rinishi.

Infokommunikatsiya obyektlari energiya ta'minoti qurilmalarining jarayonlarini nazorati uchun ishlab chiqilgan apparatni, manbalar soniga mos keladigan mikrokontrollyorlar blokini, taklif etilgan algoritm bo'yicha yaratilgan dasturiy ta'minotni amaliy qo'llash asosida elektr energiya tejash 1,8 foizga oshirilib, sinov vaqtida ko'p parametrli tokini monitoringii va boshqaruvi orqali energiyadan samarali foydalanish imkonini taqdim etildi.


4.3-§. Energiya ta'minoti monitoringi natijalarining samaradorlik va ishonchlilik ko'rsatkichlarini tahlili

Elektr energiya istemol qiluvchi obektlar xususan, transport tizimlarini ishonchli va uzlucksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash ko'p jihatdan rele himoyasi va avtomatlashtirish qurilmalarining holati va to'g'ri ishlashiga bog'liq. Qurilmalarning elementar ma'lumotlar bazasining hozirgi holatini o'rganish, o'rni himoyasi va avtomatlashtirish qurilmalarining shikastlanishini tahlil qilish Respublikamiz miqyosidagi tarmoqlarda o'rni himoyasi va avtomatlashtirishning ishonchliligin oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni aniqlash dolzarb xisoblanadi. Energiya ta'minoti monitoringi va boshqaruvi uchun mo'ljallangan apparat va dasturiy majmua rele himoyasi va avtomatlashtirish qurilmalarining miqdoriy va sifat tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni statistik tahlil qilish usuli uchun qo'llanildi. Elektr tarmoqlari majmuasining holati baholanadi, bunda xususiy kapitalning o'z elektr inshootlarini modernizatsiya qilishdan manfaatdorligi past. Elementlar bazasini rivojlantirishda ham, o'rni himoyasi qurilmalarining noto'g'ri ishlashi va shikastlanishining sabablarida ham salbiy tendensiyalar aniqlandi. Strukturaviy-funksional usul avtomatlashtirish va rele himoyasi qurilmalari ishlashining ishonchliligin oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun ishlatilgan. Amaliyatda qo'llanilishi natijasida qurilmalarning umumiyligi sonining sezilarli darajada qisqarish tendensiyasi kuzatildi, eskirganligi tufayli nosozliklar ulushi esa nosozliklar umumiyligi sonining chorak qismiga yetdi. Zararning asosiy sabablari bilan har xil turdag'i o'rni himoyasi qurilmalari uchun eng ko'p zararlar statistikasini tahlil qilish amalga oshiriladi. Mavjud ma'lumotlarning tahlili rele himoya vositalarini modernizatsiya qilish va ularning ishlashi ishonchliligin oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu muammolardan kelib chiqib ishlab chiqilgan qurilma va uni

masofadan monitoring qilish uchun mo‘ljallangan dasturiy majmuaning samaradorlik ko‘rsatkichlari 4.5-rasmda yanada aniqroq qilib keltirib o‘tilgan.




4.5-rasm. Rwcontrol.uz tizimining energiya ta’minoti monitoringi xududlar kesimida asosiy saxifasi.



4.6-rasm. Rwcontrol.uz tizimining energiya ta’minoti monitoringi xududlar kesimida asosiy saxifasi.

Pwcontrol.Herokuapp.Com dasturiy majmua PHP dasturlash tilida yaratilgan, qulay interfeyslarni o‘z ichiga oladi. Asosiy avzalliklari shundan iboratki xududlarda joylashgan energiya ta’minoti nazorati

qurilamalaridan kelayotgan signallarni qabul qiladi va kerakli vazifalarni bajaradi. Yuqorida keltirilgan 4.5-rasmida qurilmalar o‘rnatilgan xududlar va ularda mavjud bo‘lgan energiya ta’minoti qurilmalari xaqida malumotlar keltirilan. Tizimga xududlar kesimida axborotlar qachonki qurilma bilan tizim o‘rtasida signal mavjud bo‘lgan xolatdagina ko‘rinadi va shundagina masofadan berilgan buyruqlar va boshqaruv jarayonlarini amalga oshirish imkonini mavjud bo‘ladi [3; 4; 6; 7].



4.7-rasm. Rwcontrol.uz tizimining energiya ta’minoti monitoringi mavjud stansiya ishlamay turgan vaqtdagi malumotlari.


